



ZARIPOVA D. A.

# TA'LIM TEXNOLOGIYALARI



UO'K: 004.85(075.8)

KBK: 32.973.2

D.A.Zaripova. Ta'lism texnologiyalari. O'quv qo'llanma. – T.: «Aloqachi», 2019. – 124 b.

ISBN 978-9943-5807-7-0

Mazkur fan dasturi bakalaviatura AKT sohasida kasb ta'limi yo'nalishlarida o'qitiladigan "Ta'lism texnologiyalari" o'quv fani bo'yicha tuzilgan bo'lib, unda ta'lism texnologiyalari mazmun mohiyati, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari turlari, ularning ilmiy nazariy asoslari, asosiy vazifalarini, maqsad va vazifalarini bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma "Ta'lism texnologiyalari" o'quv fani o'qitiladigan ta'lism yo'nalishlari tabalalarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashga mo'ljallangan bo'lib, tabalarning kasbiy pedagogik, metodik tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma universitetning AKT sohasida kasb ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan tabalalar uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma "Ta'lism texnologiyalari" fanini o'rganishning nazariy va amaliy asoslarni qamrab olgan bo'lib, unda ta'lismning texnologiyalari, asoslari uning tarkibi, tuzilishi, vazifalarini va unga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar, ta'lism texnologiyalaridan amalda foydalanishga doir tavsiyalar keltirilgan.

O'quv qo'llanmadan oliy ta'lism muassasalarini tabalari professor-o'qtuvchilar xamda ta'lism texnologiyalari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

UO'K: 004.85(075.8)

KBK: 32.973.2

Taqrizchilar: L.M.Nabiulina – p.f.n., dosent

D.I.Yunusova – p.f.d., professor

O'quv qo'llanma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. Ilmiy-uslubiy Kengashining qarori bilan chop etishga tavsiya etildi

ISBN 978-9943-5807-7-0

© «Aloqachi» nashriyoti, 2019.

## KIRISH

Bugun jaxonning rivojlangan mamlakatlari tajribasini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellectual resurslarni inobatga olgan holda jamiat hayotining barcha sohalarida tub islohatlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarda yo'ga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsada, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning "Yana bir muammoni hal etish o'ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o'qtuvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lism olish, ma'naviy ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur".<sup>1</sup> – deb aytgan fikrlari ahamiyat kasb etadi.

XXI asr ta'lism olishining o'ziga xos davri bo'lishi kutilmoqda, chunki endilikda ta'lism axborotlar oqimi kuchaygan sharoitda amalga oshiriladi. Bu jarayondan albatta kasbiy ta'lism ham chetda qolmaydi. Xalqaro hamjamiyatda pedagog kadrlarni tayyorlash hamda ta'lism innovatsiyalari va texnologiyalari asosida ta'lismni tashkil etish, pedagog kadrlarning zamonaviy texnologik bilimlarini kamaytirish, ta'lismni virtuallashtirish, loyihalash va uning zamonaviy paradigmalaridan (3D-Learning, aralash ta'lism (online / offline) Moodle.) foydalanish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimiz ta'lism tizimini xalqaro ta'lism standartlari bilan uyg'unlashtirib, oliy ta'lism muassasalarida xalqaro andozalarga mos keluvchi va ijtimoiy buyurtma asosida malakali kadrlarni tayyorlashda innovation ta'lism texnologiyalarini ishlab chiqish, ta'lism texnologiyalaridan ta'lism jarayonida samarali foydalana olish ta'lism sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'lism tizimida oliy ta'lism alohida o'rinn egallaydi. Oliy ta'lism muassasalarini tabalari kasbiy tayyorgarligi sifatini ta'minlashda

<sup>1</sup> Ш.М.Мирзиев "Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак". Тошкент 2017, 45-бет.

ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi metod va vositalari, ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi tarixi, an'anavaiyi va noan'naviy o'qitish texnologiyalari shaklida yo'naltirilishi, ta'lim hamkorlik ta'lumi, muammoli ta'lim, individual ta'lim, masofaviy ta'lim, elektron pedagogika, pedagogika pedagogik dizayn, ta'lim jarayonini loyihalash jarayonlari xamda bilim, ko'nikma va malakalarni kasbiy kompitentlarini shakillantirish muhim ahamiyatga ega.

## 1-BOB. TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING MAQSAD VA VAZIFALARI

### 1.1. "Ta'lim texnologiyalari" faniga kirish

Fan, texnika va texnologiyaning o'tgan asrning o'rtalaridagi yutuqlari, shubhasiz zamonaviy ilmiy texnik taraqqiyot uchun zamin yaratdi. XX asrda ayniqsa uning ikkinchi yarmida fan taraqqiyotining sur'ati, o'zining eng yuqori cho'qqisiga erishdi. Bu davrda to'plangan ilmiy ma'lumotlar, insoniyatning butun tarixi davomida to'plangan bilimlar hajmining aksariy qismidan ortig'ini tashkil etadi. Nazariy va amaliy fanlarda olingen inqilobiy natijalarning olamshumul yutug'i - bu kosmos va yadro energiyasining o'zlashtirilishidir.

Fan, texnika, texnologiyaning ushbu samarali taraqqiyoti yangi ilm talab ishlab chiqarish jarayonlarini vujudga kelishiga va uzlusiz rivojlanishiga, chiqariladigan mahsulotlar sifatini yaxshilanishiga va hajmini oshishiga olib keldi. Tabiiyki ishlab chiqarish usullarini o'zgarishi, ta'lim sohasidagi tegishli o'zgarishlarni taqozo etadi.

XVII asrda ommaviy sanoat ishlab chiqarishining vujudga kelishi, ko'plab darsliklarni chop etish imkoniyati va ehtiyojini tug'dirdi va shu asosda ommaviy mакtab tizimini shakllanishiga zamin yaratdi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida zamonaviy elektron hisoblash mashinalari va telekommunikatsion tizimlar samarali o'rgatuvchi texnik vositalar vazifasini bajarayotgan bir paytda, bu vositalar bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylangan. Aqliy mehnatni avtomatlashtirishning real jarayonlarini amalgalash oshiriladi. Ishlab chiqarishning ishchi o'rnlari o'rta ma'lumotli mutaxassislarga mo'ljallangan, ishlab chiqarishning ayrim ilmtalab tarmoqlari oliy ma'lumotli mutaxassislarga extiyoji kattadir.

Ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojni kadrlarga talabni o'sishi pedagog o'sishiga olib keladi. Ammo ma'lumki, pedagog kasbi eng murakkab kasblardan biri hisoblanadi. Haqiqiy pedagog bo'lish uchun pedagogik qobiliyat, pedagogik mahorat zarurdir. Pedagogik qobiliyatli kishilarning soni cheklanganligini hisobga oladigan bo'lsak, ta'lim tizimiga, bu qobiliyatga to'la ega bo'lmagan ko'p sonli kishilar qamrab olinayotganligini guvohi bo'lamiz.

Yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan fan, texnika va texnologiyalar sharoitida, zamonaviy jamiyatda, pedagog kasbining yanada murakkablashuvini qayd etish zarurdir. Ilmiy texnik taraqqiyotning jadallashiwi, ilmiy-texnik axborotlarning jadal o'sishiga va

yangilanishiga olib keldi. Dunyoda har yili yuz minglab kitoblar jurnallar chop etiladi, yuz minglab dissertatsiyalar himoya qilinadi, Internet global tarmog‘idagi axborotlar oqimini amalda o‘lchab bo‘lmaydi.

XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan "Pedagogik texnologiya" va unga nomdosh bo‘lgan fanlar pedagog kadrlarni tayyorlashda muxim ahamiyatga ega. Ommaviy ta’lim sharoitida, pedagogik texnologiyalar – har bir bosqichi va har bir elementi jiddiy asoslangan, ob’ektiv tashxislanishiga, kafolatlanuvchi pirovard natijaga mo‘ljallangan – pedagogik jarayonni tuzish va ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi. Pedagogik texnologiyalar, zamonaviy jamiyatning ta’lim tizimida bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanadi.

Ta’limni texnologiyalashtirish g‘oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chek pedagogi Yan Amos Komenskiy ta’limni texnologiyalashtirish g‘oyasini ilgari surgan. U ta’limni "texnikaviy" qilishga undagan, ya’ni hamma narsa, nimaga o‘qitsa, muvaffaqiyatga ega bo‘lsin. Natijaga olib keluvchi, o‘quv jarayonini, u "didaktik mashina" deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun: aniq qo‘yilgan maqsadlar, bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar; bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini takidlagan.

Ta’lim nazariysi va amaliyotida o‘quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar amalga oshirilgan. Ular o‘z ifodasini an’anaviy o‘qitish uchun majmiali texnik vositalarni yaratishda topgan.

Hozirgi vaqtida pedagogik texnologiyaga o‘qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni qo‘llash, shuningdek qo‘llanilayotgan usullarni baholash yo‘li orqali ta’lim jarayonining asosları va uni maqbullahtirish yo‘llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir.

Barcha ta’lim va tarbiya jarayonlarini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish pedagogik jarayonini ixtiyoriy loyixalash va uni amalga oshirishdan keskin burilishi quyidagilarni anglatadi:

✓ uning har bir qism va bosqichlarining izchil asoslanganligi (ta’lim jarayonini tizimlashtirish - batafsil aniqlangan va asoslangan, ishlarni

ma’lum tartibidan tashkil topgan qismlar - muloqot, axborot va boshqaruvning yo‘l va vositalarini aniqlash);

✓ yakuniy natijani haqqoniy tashxis qila olishga yo‘naltirilganligini;

✓ ta’lim jarayoniga mavjud sharoit va belgilangan vaqt ichida qo‘yilgan ta’limiy maqsad hamda ijobiyligi natijaga erishishni ta’minkaydigan ishlab chiqarish-texnologik jarayonining mukammal, aniq yo‘lga qo‘yilgan, izchil, muvofiqlashgan xususiyatini berish;

✓ uning samaradorligi va inson imkoniyatlari (kuch, vaqt)ni maqbullahtirish maqsadi bilan butun ta’lim jarayonini boshqaruvchanligi.

"Texnologiya" atamasi pedagogika faniga ishlab chiqarish sohasidan kirib kelgan, uning mohiyati va vazifasini insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish yo‘nalishida qabul qilish kerak.

*O‘quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rnii. Kadrlar tayyorlash*

Zamonaviy pedagoglarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- ta’lim berish mahorati;

- tarbiyalay olish mahorati;

- o‘quv-tarbiya jarayonida inson omilini taminlovchi shaxsiyat fazilati;

- ta’lim oluvchilarining bilimlarini xolisona nazorat qila olishi va baholay olish maxorati.

Ijodkor pedagoglar an’anaviy ta’lim berish usulidagi kamchiliklarga javob topish, o‘quvchining aqliy faoliyatini rivojlantirish usullarini izlashlari natijasida o‘ziga xos ta’lim usuli vositasini yaratadilarki, buning oqibatida yangicha pedagogik fikrlash tarzi vujudga keladi. Ana shu izlanishlar natijasida yangi pedagogik texnologiyalar yaratila boshlandi.

Pedagogik texnologiyalarni bir tizimga solish, unga maqsadli yo‘nalish berish ta’limning amalga oshirishdagi shakl va mazmun yaxlitligini taminlagan holda kutilishi zarur natijani olishni belgilaydi. Ta’limga testlarni olib kirilishi, bilimlarni ko‘p balli baholash tizimida aniqlashga o‘tish, bob, bo‘lim mazmunini yaxlit holda o‘zlashtirishni modellashtirish, tizimga solingan nazorat turlarida, o‘quvchilarini ishlashi va nihoyat noan’anaviy ta’lim o‘rniga vujudga kelgan yangi texnologiyalar bo‘lib, ular yangicha fikrlash tizimdagi ta’limga o‘tishni taqozo etadi.

“Ta’lim texnologiyalari” fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanadi. Ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos xususiyati

shundan iboratki, unda o'quv maqsadlarga kafolatli erishishda o'quv jarayon loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani olish imkonini beruvchi konstruktiv ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

*O'quv fanining maqsadi va vazifasi.* Ta'lism samaradorligini oshiruvchi omillarni to'xtovsiz tahlil qilish, hamda qo'yiladigan metodlarni nechog'lik mosligiga to'g'ri baho berish tamoyillarini belgilash va ta'lism natijasini ifodalay olishimizga ko'rsatadigan yo'i hisoblanadi. Yangi pedagogik texnologiya mana shu tamoyillarga tayanib, ta'lism jarayonii samarali bo'lishini taminlaydi.

Ta'lismni amalga oshirish jarayoniga texnologiyalarni kiritish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- ta'lism jarayonida ishtirok etuvchi ta'lism oluvchi shaxsi ustivorligini taminlash;
- ta'lism maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish;
- ta'lism jarayonini boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda, uni maqsadli boshqarishga erishish;
- ta'lism mazmunini taminlovchi vosita, usul, shakllar texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

#### Nazorat savollari:

1. Fanining dolzarbliji va kasbiy ta'limdagi o'rni.
2. Fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Ta'lism texnologiyalarining mohiyatlari belgilariga batafsil aniqlik bering.
4. O'quv fanining maqsadi va vazifasi nimalar kiradi?

#### 1.2. Ta'lism texnologiyalari tushunchasi, tavsifi va rivojlanish tarixi

Ilmiy-texnik taraqqiyot nafaqat aksariyat ishlab chiqarish sohasinigina texnologiyalashtirilmoqda, balki u madaniyat, ta'lism ta'lism va boshqa texnologiyalar to'g'risida fikr yuritish mumkin.

Texnologizasiyalash-bu obektiv jarayon bo'lib, ta'lism evolyusiyasining yangi vazifalarini sifatli hal qilish uchun tayyorgarlik davridir.

Tarixan texnologiya tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan va bu tushuncha san'at, hunar va fan haqidagi

ta'lismotga muvofiq keladi.

Texnologiya deganda, odatda ashylarni qayta ishlash metodlari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ularning ilmiy tavsiflarining majmui tushuniladi. Siyosiy lug'atda texnologiyaga shunday izoh beriladi:

- ishlab chiqarish jarayonida ashylar, materiallar, yarim tayyor ashylarni qayta ishlash, tayyorlash holati, xususiyati, shakliriing o'zgarish metodlari yig'indisi;
- ashylar, materiallar va yarim xom ashylarga muvofiq ishlab chiqarish qurollari orqali ta'sir o'tkazish usullari to'g'risidagi fan.

"Qomusiy lug'at" da ham shunga yaqin izoh beriladi, lekin unda birmuncha kengroq yoritiladi: "Fan sifatida texnologiyaning vazifasi har tomonlama samarali va tejamli ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash va amaliyotda undan foydalanish maqsadida fizika, kimyo, mexanika va boshqa qonuniyatlarini bajarish".

Texnologiya grekcha so'z bo'lib, texnos- san'at, mahorat, logosta'lismot degan ma'nolarni bildiradi.

Texnologik bilimlar tizimi quyidagi tashkil etuvchilardan iborat:

- tushunchaga oid qism - texnologyalashtirishning murakkabroq bo'lgan toifa va qoidlarini o'rganishga yo'lli;

- ta'lism texnologiyasining tarkibiy qism va harakatlanuvchi tuzilma - ta'lism jarayonini bashoratlash va loyihalashtirish asosi to'g'risida tushuncha;

- talimiy texnologiyalarning konseptual asoslari - har qanday ta'lism texnologyasi negiziga pedagogik va psixologik fanlar yutug'ida ifodalangan pedagogik g'oya asos bo'ladi;

- maqsadni belgilash - agar pedagogik vazifalar aniqlangan bo'lsa va o'quv faoliyatining yakuniy natijalari bir ma'noda ifodalangan bo'lsa, boshlanish shartlari ma'lum bo'lsa, ta'lism jarayonini loyihalashtirish mumkin;

- ta'lism berish modeli - maqbul yo'llar (usul va shakllar) va vositalar yig'indisi - mavjud sharoitlar va belgilangan vaqtida ob'ektning boshlang'ich holatini o'zgartirish bo'yicha ko'zlanayotgan natijalarga erishish kafolati;

- boshqaruvning yo'l va vositalar yig'indisi: bashoratlash, loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat va baholash, shuningdek tezkor o'zgartirish to'g'risida boshqaruva xulosasini qabul qilish maqsadida ta'lism jarayonini uzluksiz va muntazam kuzatish - monitoring.

Ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar hamda ilmiy jurnallar

1-jadval

Nº	Mamlakatlar	Tashkilot nomi	Tash. top.yil	Jurnal nomi	Nashr et. yil
1	AQSH	Ta'lim kommunikatsiyasi hamda assotsiyasi	1971	Ta'lim texnologiyasili	1961
2	Angliya	Pedagogik ta'lim milliy kengashi	1967	Ta'lim texnologiyasi va dasturli ta'limi	1964
3	Yaponiya	4 nomdagagi ilmiy jurnallar	1965 1970	Ta'lim texnologiyasili	1965
4	Italiya	Milliy markaz tashkil etildi	1971	Ta'lim texnologiyasili	1971
5	Vengriya	O'qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi	1973	Ta'lim texnologiyasili	1971
6	Rossiya	O'qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi	1971	Ta'lim texnologiyasili	
7	O'zbekiston			Ta'lim texnologiyalari	1993

Ta'lim berishni texnologiyalashtirish asosini o'rganishni boshlashdan avval, quyidagi maslahat va tavsiyalarga e'tiboringizni qarating.

1. Texnologiyalashtirish asosida ifodalangan, va bu bilan albatta siz tanishishingiz zarur bo'lgan qoidalar, shu zahoti sizga tushuntirish bermaydi, faqat ko'zlanayotgan maqbul va samarali natijaga erishish uchun nimra ish qilish zarurligini ko'rsatadi.

Har bir yo'l va vosita o'qituvchi-texnolog tomonidan, u intilayotgan, yakuniy natijaga erishishga ko'rinarli qo'shgan hissasi

tomoni bilan baholanishi zarur. qoidaning maqbulligini talqin qila turib, e'tiborni nafaqat unga, uni qo'llashni nazarda tutuvchi vaziyat yoki sharoitlarga qaratish zarur. Bundan tashqari, avvalda shu narsani o'quv vaziyatida qo'llab, muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchi-amaliyotchi yoki hammaga ma'lum bo'lgan ta'lim berish texnologiyasining muallifida, shuni qoidasiz umumlashtirishdagi xatoliklar tarqalgan. Mohiyat shundaki, barcha turli-tumanlikdan mavjud sharoitda va o'quv rejasida berilgan vaqtida ko'zlanayotgan natijaga erishishni kafolatli ta'minlaydigan, so'ngra esa undan shu sharoit uchun mos keladigan, ta'lim berish texnologiyasining - yagona majmuini loyihalashtirish mumkin bo'ladigan, axborot, muloqot va boshqaruvning shunday yo'l va vositalarini baholashi, farqlashi va tanlashni uddalashi muhim.

2. Mashhur marketolog Dj. O'Shannessining "...kitoblar hyech qachon tajriba o'rnini bosa olmaydi degan fikriga qo'shilish mumkin. Mahoratl oshpaz oshpazlik to'g'risida kitob yozishi mumkin, uni tayyorlash yo'liga amal qilib, xuddi shunday chiqishini kutmaslik kerak, chunki uning mahorati bilan taqqoslab bo'lmaydi - berilgan qoidani ishlatib muhim ko'nikma va malakalar ega bo'lish mumkin emas, ular faqat amaliyotda egallanadi va "qo'llaniladigan donishmandlik" deb ataluvchi amaliyotli donishmandlik bilan mustahkamlanadi, ya'ni vaziyat bilan muvofiqlikdagi donishimandlik" [19].

Ushbu qo'llanma bilan tanishganingizdan so'ng shu zahoti umidsizlikka tushmang, siz shu zahoti ta'lim berish texnologiyasini loyihalashtira olmaysiz. Shuni esda saqlanki: qo'llaniladigan donishmandlik kitob bo'yicha formularni o'rganishda emas, balki haqiqiy ishni bajarganda hosil bo'ladi.

3. "Ta'lim jarayonini ixtiyoriy qurish va amalga oshirishdan, uning har bir qism va bosqichlarini izchil asoslangan, yakuniy natijani haqqoniy tashxislashga yo'naltirilgan" ga o'tish uchun asos zarur [7].

Agarda siz ta'lim jarayonini texnologiyalashtirishga o'tish muhimligini anglamas ekansiz, unda "biz yangi texnologiyalarning yutug'larini bermaylik, paydo bo'lgan muntazamlik mexanizmini chiqarib tashlay olmaydi, yo bo'lmasa majbur qilingan texnologiyalar ziyonli natijalarni ko'paytirish mumkin "

5. Nihoyat, shaxsiy ta'lim berish texnologiyasini loyihalashtirish va mavjud ta'lim berish texnologiyasini qo'llash "o'qituvchi, vaziyat madaniyati, shuningdek shaxsiy yoki talabalarning shaxsiy xususiyatlari bilan yuzma-yuz kelish yo'nalishi bilan ish tutmog'i kerak".

**Ta'limga texnologik yondashuv va “Ta’lim texnologiyasi” tushunchasi ma’nosining uzluksiz o’zgarishi**

*2-jadval*

Davr	Texnologik yondashuvning namoyon bo‘lishi	“TT” tushunchasi ma’nosi
XVII asr	XVII asrda Yan Amos Komenskiy, shunday ta’lim mexanizmi, ya’ni “vaqt, narsalar va usullar” mohirona taqsimlansa, uni to‘g’ri tuzish va undan to‘g’ri foydalaniilganda kutilayotgan natijani bersa, ya’ni uni «didaktik mashina» deb nomlab, u ustida izlanish olib borgan	«Didaktik mashina»
30 – yillar 50- yillarning o‘rtasi	30-yilning o‘rtasida AQShning Indiana universitetida talabalarga eshitish va ko‘rish (audiovizual) ta’limi bo‘yicha ma’ruzalar o‘qilgan, 1946y. – shu yerning o‘zida eshitish va ko‘rish (audiovizual) ta’limi bo‘yicha mutaxassislarini tayyorlash kursi: ishlab chiqarishni rejalashtirish, eshitish va ko‘rish (audiovizual) vositalarni ishlatish va ular sifatini baholash, shu vositalarni qo‘llab o‘quv jarayonini boshqarish dasturlari kiritildi.  1954y. – professor B.F. Skinner tomonidan ishlar taqsimoti (mavzu-qadam-xodimlar) bo‘yicha o‘rgatishning muntazamli	“Ta’limda texnologiyalar” - “... ma’lumotgaega bo‘lishsohasida zamonomamizning bo‘lagibो‘lgan kashfiyotlar, sanoat mahsulotlariva jarayonlarini qo‘llash”(M. Klark).  Pedagogik maqsadlarda axborotni taqdim etishda eshitish va ko‘rish (audiovizual) vositalarini qo‘llash

		texnologiyasini o‘zida namoyon etuvchi, dasturlashgan ta’lim modeli (DT) asosladи. Qaytar aloqani nazarda tutuvchi: har bir bajarilgan ishning to‘g’riligini tezkor baholash va agarda keyingi qadamga xatolik bo‘lsa qaytarish deb ta’kidlagan.	.
50 – 60 - yillar o‘rtasi	1958y. – N. Krauder bir qator berilgan va javoblarni to‘g’riligiga bog‘liq ravishda qaytar aloqaga muvofiq javoblarni ko‘p tanlash DT kengaytirilgan chizmasini taklif etdi.	“O‘rgatuvchi texnologiya” (D. Finn, 1959) – pedagogik maqsadda maxsus yaratilgan eshitish vositalaridan foydalanish va ulardan foydalanish uslubiyoti.	
70 - 80 - yillar	Ta’lim texnologiyasini ilmiy asosini axborot, telealoqa nazariyasi, pedagogik kvalimetriyasi, tizimli tahlil, bilish jarayonini boshqarish nazariyasi, ta’lim jarayonini qulaylashtirish, pedagogik mehnatni ilmiy tashkillashtirish va boshqalar. Eshitish vositalarining yangi turlari: videomagnitofon, aylanmali kadro-proektor, elektron va bloknotli yozuv taxtasi va boshqalar chiqara boshladi.  Ta’lim texnologiyasi muammolari bo‘yicha Halqaro anjumanlarda ta’lim texnologiyasiga umumiyo mohiyat taklif etildi.	“Ta’limiy texnologiya” TT – “ta’lim texnik vositalari yoki kompyuter sohasidagi” izlanishlar emas; bu ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo‘li bilan, tuzilmaga keltirish hamda yo‘li va materiallarni qo‘llash yo‘li bilan, shuningdek qo‘llanilayotgan	

TT qo'llanish sohasi - (1) o'qitishning texnik vositalari, (2) ma'lumot olish muammolariga tizimli yondashishi. "Birinchi soha o'qitish vositalarida texnika yutuqlarini amalga oshirish bilan, ikkinchi soha esa, pedagogik nazariyani rivojlanishi bilan, ularni tashkillashtirishning umumiylazariyasi birlashtirishi lozim bo'lgan ilovaga bog'liq, ya'ni ta'lim muammolariga tizimli yondashishdir".

P.D.Mitchel (1970 y.) TT bo'yicha 102 manbalarni tahlil etishi natijasida TT ma'nosi va pedagog-tekhnologlar vazifasi asosini shaktlantiradi: "Kutilayotgan pedagogik natijalarini olish uchun inson, moddiy va moliyaviy manbalarni maqbul taqsimlash".

TT pedagogikada nazariy bilim sohasi deb qabul qilinishi: "TT muammolarining nazariy tadqiqotlarini ishlab chiquvchi oqim, mohir texnologlarning yangi avlodiy paydo bo'ldi" (M. Eraut).

"Faqt sodda odamlargina, texnologiyani - faqt moslamalar va o'quv materiallar majmui deb hisoblaydilar". Bu bundan ko'prog'ini angalatadi. Bu tashkillashtirish yo'li, bu materiallar, insonlar, tashkilot, modellar va tizim turidagi "inson-mashina" to'g'risidagi tasavvur. Bu muammoning iqtisodiy imkoniyatlarini tekshirish. Bundan tashqari, texnologiya fan, san'at va

usullarni baholash orqali ta'lim jarayonini eng maqbullashtirish prinsiplarini aniqlash va yo'llarini ishlab chiqish maqsadidagi izlanishdir". London - Nyu-York, 1978 g.

"TT dastlabki mohiyati pedagogik maqsadlarda muloqot qilishning eshitish va ko'rish vositalari, ko'rsatuv, kompyuter va boshqa turdag'i "yumshoq" va "qattiq" vositalardan foydalanishni anglatgan. Yangi va kengroq ma'noda esa, - ta'lim olish shakillarini maqbullashtirishni o'z vazifalari deb qo'yuuvchi, butun

inson qadri o'zaro harakatiga muhim bo'lgan aloqaga ega.

TT "Ta'lim vositasi"ning sinonimi hisoblanmasdan, u fanlararo xilmoxil tasodiflar yig'indisi, ta'limning barcha jihatlari bilan bog'liq bo'lgan, qisqa ta'limiy lavhadan to uning barcha harakatlaridagi milliy tizimlari hisoblanadi" - D. Finn, London, 1978 y.

80 - yillarda TT to'g'risida Rossiya olimlarining birinchi nashrlari paydo bo'ldi: "... horijiy tajribalar hozir bizda yaxshi ma'lum bo'lmay turibdi. Lekin TT eshigimizni taqillatayapti" (Klarin, 1989).

ta'lim berish jarayonini hamda bilimlarni texnikaviy va insoniy manbalarni hisobga olgan holda o'zlashtirish va ularning o'zaro harakatini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usulidir". (YUNESKO, 1986 y.)

90-chi yillar TT muammolarini: V.P. Bespalko, V. Guzeev, V. Klarin, V. Monakov, G. Selevko, S. Saidaxmedov, J. Yo'ldoshev, S. Usmonov, M. Ochilov va boshqalar ishlab chiqdilar.

«Pedagogik texnologiya» - atamasi pedagogika fanida vujudga keldi.

XXI asrning 1- o'n yillari "Pedagogikaning predmeti inson tabiatini (bog'liq bo'lgan) va o'quv-tarbiyaviy harakatlarining samarasini o'tasidagi qonuniyatli munosabatlar hisoblanadi". Bir qancha uslubiyotlardan "tanlash huquqi" o'miga, ilmiy, tabiatga oid pedagogika berilgan yoki insonni to'g'risidagi aniq bilimlari asosida mayjud sharoitlar uchun harakatlanishning maqbul yo'llarini ongli loyihalashni taklif etadi. Ma'lumki, muammoning bunday berilishida pedagogika "tajribani umumlashtirish" va "omma ijodkorligi" botqog'idan ilmiy izlanish maydoniga va yuqori asosli psixologiya - pedagogika muhandisligiga o'zgaradi. Ushbu matn parchasida TT - berilgan sharoitda pedagogik vazifalarga maqbul erishish yo'llaridir. Berilgan sharoitda maqbullik - texnologiyani hammabop tizimli belgisi.

### Nazorat savollari:

1. Ta'lim texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'lim texnologiyasi fanining rivojlanish tarixini bilasizmi?
3. Texnologik bilimlar tizimi nimalardan iborat?
4. Texnologizasiyalash deganga nimani tushunasiz?
5. Fanga xissa qo'shgan qaysi olimlarni bilasiz?

### 1.3. Talaba shaxsi ta'lim texnologiyasi ob'ekti va sub'ekti sifatida

Respublikamizda ta'lim tizimida isloxtatlardan amalgamoshirilayotgan asosiy maqsad shaxsni har tomonlama rivojlantirish va farovonligini ta'minlash hisoblanadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo'lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati uzlusiz ta'lim tizimini orqali har tomonlama rivojlangan shaxs - shakilanishini ko'zda tutadi. U ushbu ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlarning istemolchisi, buyurtmachisi sifatida va huddi shunday ishlab chiqaruvchi sifatida ishtirok etadi.

Shaxs ta'lim jarayonining ishlab chiqaruvchisi sifatida ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmatlar sohasi faoliyatida o'zining ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun kasbiy ta'lim yo'nalishlarini tanlash huquqini bergan.

Uzlusiz ta'lim tizimida oliv ta'lim alohida o'rinn egallaydi.

O'qituvchining o'z ishiga ijodiy yondashuvi jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, yangiliklarni tezda ilg'ay bilishi, fan yangiliklarini talaba tezkor axborot bilan ta'minlanishi darkor. Axborotning roli beqiyos o'sgan davrda kerakli ma'lumotlarsiz iqtisodiy hodisalarni o'rganish, tahlil qilish, xulosa chiqarish mumkin emas.

Axborot to'plashning asosiy usullari quyidagilar:

- bibliografiya tizimi;
- o'qituvchi va talabalar tomonidan to'plangan ma'lumotlarni tizimlash;
- o'qituvchilar kuchi bilan yangi adabiyotlarga taqrizlar va sharhlar yozish;
- ilmiy munozaralar tashkil qilish va ilmiy dokladlarni muhokama qilish, internet axborotidan foydalanish va hokazolar.

Lekin shuni yodda tutish kerak:

1. Allaqachonlar ko'pchilik bir fikrga kelgan masalalar, iboralar bo'yicha qaytadan munozara boshlamaslik;
2. Me'yordan chiqmaslik, hamma mavzuda albatta munozaralari savolni o'rtaga tashlash shart emas;
3. U yoki bu muammo, tushuncha haqida boshqalar o'z fikrlarini aytgach, albatta, munosabat bildirish;
4. Munozaralari savollarni avvalo kafedra yig'ilishida muhokama qilib, bir fikrga kelish, so'ngra talabalar muhokamasiga qo'yish kerak.

Shu bilan birga, murakkab hodisa jarayonlarni asossiz ravishda soddalashtirishga ham urinmaslik kerak. Har bir masalaga bir tomonlama yondashish ham noto'g'ri xulosa chiqarishga olib kelishi mumkinligini yoddan chiqarmaslik zarur.

Dars o'tishda o'qituvchi talabalarning qaysi guruhiba e'tibor qaratishi kerar: bilimdonlarnimi, bilimi o'rtachalarnimi yoki bilim doirasi pastlarnimi? Bu savolga javob berish uchun har qanday darsda mazmun va shaklni hisobga olish kerak.

Har qanday ma'ruza mazmunan nazariy jihatdan yuqori darajada, shaklan esa hammaga tushunarli bo'lishi kerak. Ma'ruzaning dolzarbligi avvalo unig shakliga, uslubiga, qanday auditoriyada o'qilishiga bog'liq. Ko'pincha, talabalardan o'qituvchi zerikarli ma'ruza o'qiydi, tushunib bo'lmaydi, degan shikoyatlarni eshitish mumkin. Tajribali pedagoglar buning sababini didaktikaning printsiplari buzilganida, izchil mantiqning yo'qligida, gaplarning murakkab tuzilishida, yaxshi misollar tanlanmaganligida, oldingi ma'ruza bilan bog'lanish yo'qligida deb ko'rsatishadi.

Dars berishning ob'ektiv hamda sub'ektiv tomonlari mavjud. Uning ob'ektiv tomoniga fanning predmeti, shu fanning xususiyatlari, mavzuning mazmuni kirsa, sub'ektiv tomoniga shu fanni o'qituvchi tomonidan o'zlashtirilishi kiradi. Undan tashqari, metodik jihatdan tayyorgarlik darajasi, individual metodik tamoyillar, uslublar va uni o'quvtarbiya jarayonida qo'llash ham shu muammoga kiradi.

O'quv jarayonini tashkil etish va dars berish uslubini tanlaganda mutaxassis tayyorlash bilan birga, yoshlarga etuklik, axloqan poklik, vatanparvarlik ruhini ham singdirish zarurligini yoddan chiqarmaslik kerak.

O'qituvchining shaxsi, psixologik sifatlari, nazariy va metodik jihatdan tayyorgarlik darajasi dars berish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi.

Dars berish metodlarining samaradorligi haqida fikr yuritilar ekan, o'qituvchining shaxsiy sifatlaridan uning ilmiy uslubiy tayyorgarligi darajasini ajratib bo'lmaydi.

Dars berish jarayon sifatida ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarning birligidir.

Dars berishning ob'ektiv tomoniga o'qituvchiga bog'liq bo'lmanan, o'rganilayotgan fanning mazmuni, dars o'tish tamoyillari kiradi. Sub'ektiv tomonlariga esa:

- a) o'qituvchining shu fanni qanday egallagani, bilim darajasi;
- b) o'qituvchining uslubiy tayyorgarligi, metodikaning qonun qoidalari ni qo'llay bilish mahorati;
- v) har bir o'qituvchining ta'lim tarbiya jarayonida u yoki bu uslubni qo'llashdagi individual xususiyatlari kiradi.

Dars berishda pedagog sub'ektiv omil sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p jihatdan talabalarning o'zlashtirishi o'qituvchining dars o'tishda tanlagan metodlariga bog'liq.

Har bir o'qituvchi o'z qobiliyatini dars berishda namoyon qilib, ma'ruba va nutqida o'ziga xos jihatlarini ko'rsatadi. Ma'lum bir mavzuni yoritishda o'qituvchi o'zi yaxshi bilgan yoki o'zining ilmiy bog'liq bo'lmanan savolga ko'p vaqt ajratib, qolgan savollarni ko'rib chiqish uchun vaqt etmay qolishi mumkin. Bu mavzuni bayon qilishda didaktikaning izchilik printsiplarini buzilishiga olib keladi. Shuning dars o'tishdagi muhim vazifalardan biri, bu – sub'ektiv omillar, ochib berishga xizmat qilishi kerak. Bunda, albatta, to'plangan metodik tajriba qo'l keladi.

Har bir o'qituvchi o'zida quyidagi psixologik sifatlarni hosil qilishga va rivojlantirishga harakat qilishi kerak.

1. O'qituvchi auditoriyada o'zini erkin tutishi dars berish imkoniyatiga ishonishi kerak.

2. O'qituvchi gapirib turib, o'yashni bilishi kerak. O'qituvchilik kasbinining, mehnatining, mahoratining o'ziga xosligi ham shunda. Dars berishda fikrlash, o'yash va gapirish jarayoni qo'shilib ketadi. Avval o'yab olib, keyin gapirishga fursat bo'lmaydi.

3. O'qituvchining fikrlashi va shu vaqtning o'zida uni bayon qilishi auditoriyada yuz beradi. Shuning uchun o'qituvchi unga tikilib turgan ko'zlardan qo'rmasligi zarur. Ularni ta'siridan xoli bo'lishni o'rganishi,

bilishi kerak. Shu bilan birga, o'qituvchi auditoriyadagi talabalar bilan o'zaro bog'liqlikni yo'qotmaslikni ham o'zida tarbiyalashi shart.

4. O'qituvchi auditoriyada o'tirgan talabalarning munosabatini, ulardagi o'zgarishini to'g'ri aniqlashi uchun kuzatuvchilik qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Auditoriyani psixologik holatini (sukunat, shovqin va hokazolar) tez ilg'ashi zarur.

O'qituvchi bir psixologik holatdan boshqa holatga oson o'ta olishi kerak. O'qituvchining ishonchli dalillari, ilmiy, asosli mulohazalari, uning fikrlarini talabalarga ta'sirini bir necha marta oshiradi. O'ziga ishonchi esa keng doiradagi bilimi, o'z fikrini ilmiy asoslab bera olish qobiliyatiga ega bo'lishda shakllanadi.

O'qituvchi keltirgan misollarida talabalarga mehnatga, jamiyatga, o'rtoqlariga, jamoaga qanday munosabatda bo'lish zarurligini anglatishi kerak. Talabalarga ta'sir ko'rsatish uchun, albatta, o'qituvchi ular o'rtasida hurmatga ega bo'lishi kerak.

O'qituvchi (oratorlik) ma'ruza o'qish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchida talabalarni o'z fikriga mahliyo qilish, o'zini qanday tutishni bilish qobiliyatni bo'lsa, u haqiqiy talant sohibidir. Buyuk faylasuf, «birinchi muallim» Aristotel har bir so'zni qanday aytishni avval soatlab oynaga qarab, mashq qilgan ekan.

O'qituvchining butun faoliyatida samimiylit, o'ziga ishonch muhim ahamiyatga ega. O'quvtarbiya faoliyatida qo'llaniladigan metodlar o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi aloqani mustahkamlashga qaratilgan. Bu o'qituvchi bilan talaba o'rtasida ishchanlik muhitini yaratishda o'z ifodasini topadi. Bunda talabaning fikri o'qituvchi bilan birga kechishi yoki ozgina orqada qolishi yoki ozgina oldinga o'tib ketishi mumkin.

O'qituvchi auditoriyani ko'rsishi, his qilishi, u bilan birga ishlashi kerak. Talaba ham, o'z navbatida, o'qituvchi uni ko'rib, nima qilayotganini bilib turishini his qilishi kerak.

O'qituvchi darsni zerikarli bo'lmasligiga harakat qilishi, o'z ma'rurasiga talaba ko'zi bilan ham qarashi lozim. Ana shunda o'zini kamchiliklari, dars o'tishda qo'llayotgan uslubi to'g'ri yoki to'g'ri emasligini tez ilg'ab oladi. O'z ishiga ijodiy yondashish, undan tashqari talabalar hayotini yaxshi bilish, talabalarni qiziqtiradigan masalalarni echishga yordam beradi.

So'nggi yillarda pedagog olimlar, amaliyotchilar ilmiy asoslangan ta'lim texnologiyalarini o'z faoliyatlarida keng qo'llashga intilmoqdalar. Ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ilmiy muammo sifatida maxsus tadqiq etishni ko'zda tutadi, bunda eng avvalo

quydgilarni aniqlash lozim:

- ta'lim texnolgiyasi nimani anglatishi va uning to'zilmasi qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligi;

- jarayon sifatida ta'lim texnologiyasining funksional tuzilmasi nimalardan iborat;

- ta'lim texnologiyalari raqobatbardosh kadrlar tayyorlash maqsadlariga qanday darajada t o'gri kelishi va uni qanday baxolash mumkinligini;

O'quv jarayonini texnologiyalashtirishda didaktik masalalarni belgilash qonuniyatlarini.

Barkamol shaxsni shakillantirish muammosi ta'lim muassasalarida o'quv tarbiyaviy jarayonlarini ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etishni taqazo etadi. Bu jarayon oson kechmaydi. Chunki: butun ixtiyoriy qurilayotgan va joriy etilayotgan o'qitish tizimini qat'ian ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. Aslida xam munosabatlar - pedagogik jaryon maxsulidir va ma'lum pedagogik tizim doirasida shakillantiriladi. Pedagogik texnologiya esa amaliyotga joriy etilayotgan pedagogik tizim loyixasidir.

N.V.Kuzmina pedagogik tizim o'zida ta'lim va tarbiya maqsadida bo'ybindirilgan o'zaro bog'lik tarkibli elementlardan tashkil topishini uqdiradilar: pedagogik maqsad; o'quv va ilmiy axborot; pedagogik aloka vositalari: o'quvchilar va pedagog. V.P.Bespalkoning ta'rifiqa ko'ra "Pedagogik" tizim ma'lum shaxs sifatlarini shakillantirshga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishini vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'lik vositalar, usullar va jarayonlar yigindisidir. Har jamiyatda shu jamiyat mafkurasiga xos shaxsni shakillantirish maqsadi va unga mos pedagogik tizim mavjud bo'ladi. Agar maqsad o'zgarsa tizim ham o'zgaradi.

Quyidagi barcha ta'lim tizimlari uchun umumiy bo'lgan pedagogik tizim loyixasi keltirilgan. Professor N.Saydaxmedovning tadqiqot etishicha xar qanday pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan kuydag'i invaritiv elementlardan tashkil topadi:

- 1) o'quvchilar;
- 2) ta'lim maqsadlari;
- 3) ta'lim -tarbiya mazmuni;
- 4) didaktika jarayonlar;
- 5) tashkiliy shakllar;
- 6) pedagogik yoki o'qitishning texnik vositalari.

Didaktik masalalarni xal etish maqsadi shaxsning ma'lum sifatlarini shakllantirish zarur bo'lsa, shart sharoitlar-talabalarning boshlangich sifat ko'rsatkichlari, axborot esa o'quv predmetining mazmuni yoki tarbiyaviy ta'siridir.

Har bir didaktik masala pedagogik tizimda o'ziga mos keladigan elementlari pedagogik texnologiya bilan xal qilinadi, ular didaktiv jarayon, o'qitishning tashkiliy shakllari hamda pedagog yoki o'qitishning texnik vositalari. Ijtimoiy buyurtma yo'nalishi didaktiv masalalarga karatilgan va bu bejiz emas, chunki ta'lim xar doim jamiyat talablarini qondirishga xizmat qiladi va u ongli ravishda yoki induktiv tarzda tez, balki sekinlik bilan bu talablarga mos xolda to'zilib boradi. Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyatlari loyixalanishi va yakuniy natijaning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar moxiyatini anglab etish darajasiga va darsda ularni to'gri belgilab olishga bog'liqdir. Bu vazifa xozirga qadar o'qituvchilar tomonidan anglashilmay kelinyapti, qator xollarda esa ular metodikani texnologiyadan farqlay olmayaptilar.

#### Nazorat savollari:

1. Texnologik bilimlar tizimi nimalardan iborat?
2. Texnologizasiyalash deganga nimani tushunasiz?
3. Pedagogik tizim nima?
4. V.P. Bespalkoning ta'rifiqa izoh bering.
5. Tasodifiy o'quvchilar guruxi deb qanday guruxga aytildi?
6. Getrogen gurux nima?

## **2- BOB. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TURLARI**

### **2.1. Pedagogik texnologiya tushunchasi va ilmiy asoslari**

Hozir mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy raqobat fan, texnika va texnologiya sohasidagi raqobatga aylandi. Demak, raqobat intellektual mohiyat kasb etib, ta'lim sohasidagi raqobatga aylanmoqda desak xato bo'lmaydi.

Biroq respublikamizda ta'lif tizimini isloq qilish va raqobatbardosh kadrler tayyorlashni ta'minlashga doir o'tkazilayotgan islohotlar avvalgi ta'lif tizimining ijobjiy tomonlaridan tamomila voz kechish degani emas. Barcha sohada, jumladan, ta'lif tizimida ham avvalgi erishilgan ilmiy potentsialga tayanish, ma'naviy merosni amaliyotga tatbiq etish. ijobjiy jihatlardan foydalanish zarur. Asosiy maqsad zamonaviy talal darajasida yoshlarimizni tarbiyalash, ijodiy fikrlay oladigan malakal mutaxassislar tayyorlashdir. Bu esa, o'z navbatida ta'lif jarayonig boshqacha nazar bilan qarashni talab etadi.

Fan texnika taraqqiyoti ta'lif tizimida ham tub o'zgarishlarni zaruriyatga aylantirdi. Natijada, pedagogikada ham yangi oqim ta'lif texnologiyalari, o'qitishning interaktiv metodlari ishlab chiqilib, dars jarayonida foydalanishga katta ahamiyat berila boshlandi.

Mamlakatimizda bir tomonidan, qator sabablarga ko'ra ta'lif sohasida yo'qotilan ilgarigi mavqeini tiklash, ikkinchi tomonidan, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rinni olish uchun ta'lif samaradorligini oshirish, buning uchun esa zarur chora-tadbirlar belgilash zarur edi.

Ta'lif jarayonini jahon tajribalari asosida tashkil qilish, o'quvchitalabalarni mustaqil fikrleshga o'rgatishga ahamiyat berila boshlandi. Respublikamizda ham ta'lif jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga e'tibor berish boshlandi.

Mutaxassis kadrlarning qay darajada bilim olishi, ko'nikma mahoratiga ega bo'lishi ta'lif muassasalarida ta'limtarbiya jarayonini ko'p jihatdan qanday tashkil etishiga bog'liq. Shuning uchun ham ko'plab pedagoglar talabalarga nimani o'qitish, o'rgatish kerak, qanday o'qitish, o'rgatish kerak? degan savol qo'yib, unga javob topish uchun tinimsiz izlanishlar olib boradilar. Pedagog olimlar va amaliyotchilar ham "texnologiyalashtirishga" ya'ni o'qitishni natijasini kafolatlangan o'ziga xos texnologik jarayonga aylantirishga urinadilar. Natijada

pedagogikada yangi yo'naliш – pedagogik texnologiya, xususan, o'qitish va tarbiyalash texnologiyasi paydo bo'ldi.

Pedagogik texnologiya bu ta'lif samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladigan hamda pedagogika nazariyasi va amaliyotining barcha sohalari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan o'qitish shakkari, metodlari, vositalari, unga yondashuvlar, tizimlar, kontseptsiyalar, tendentsiyalar, g'oyalarning fanlararo o'zaro birikib yagona majmua tarzida ifodalanishini bildiradi.

Pedagogik texnologiya deyarli yarim asr davomida tadrijiy ravishda rivojlandi va hozirgi darajaga etdi. Bu davrda o'qitish «og'zaki – audiovizual-dasturlash-multimedia-gipermedia» ketma- ketligi bo'lib almashindi.

Pedagogik texnologiyaning e'tirof etilishi davrini uch bosqichga bo'lish mumkin.

1. Pedagogik texnologiyaning o'rganish ob'ekti sifatida e'tirof etilishi. XX asrning 30 yillarida AQSh ta'lif tizimiga audiovizual o'qitish dasturlari kiritila boshlandi. U nafaqat ta'linda texnologik inqilobga, balki yangi fan pedagogik texnologiyaga asos soldi.

1946 yilda AQSh ning Indiana universitetida o'quv dasturiga audiovizual ta'lif rejasini kiritildi (muallifi L. Larson). Birinchi davr (50 yillarning boshi va o'rtalari) ta'lif muassasalarida axborotlarni taqdim etishning texnik vositalari tovushni yozib olish va qayta eshittirish, boshqacha qilib aytganda "audiovizual vositalar" ning paydo bo'lish bilan xarakterlanadi. Dastlab har bir dars, o'tiladigan mavzuda o'quv va tarbiya maqsad vazifalari ishlab chiqiladi. Bu holda ishlab chiqarishdagi boshqaruvchi bilan ta'lindagi pedagog faoliyatida o'xshashlik bor. O'quv jarayonining barcha bosqichlarida butun tizimning asosiy texnologik jihat o'quv jarayonini so'nggi natijalari bo'lgan mukammal bilimga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashga erishish maqsadi turgan.

An'anaviy yondashuvga, odatda, ko'rgazmalitushuntiruv, axborotretseptiv, reproduktiv kabi usullar kiritiladi. Ularning umumiy tomoni tayyor bilimlarni o'quvchi, talabaga etkazish, bayon qilishga asoslangan bo'lib, o'quvchi bilim oluvchi rolini bajaradi. An'anaviy o'qitishda:

- Yangi materiallarning deyarli hammasi o'qituvchi tomonidan o'zaki bayon qilinadi;

Bilimlar talabalarga tayyor holda taqdim etiladi;

O'qituvchi turli yo'llar bilan bu bilimlarning qabul qilinishini tashkil qiladi; - O'quvchilar bilimni qabul qiladilar (retseptsiya) va ularni ma'nosiga etadilar, o'z xotiralarida saqlab qoladilar;

- Darslik asosan mustaqil ish uchun qo'llaniladi;
- Auditoriya mashg'ulotlari paytida darsliklar: ayrim hollarda pedagog tushuntirishlariga xalaqit bermasligi uchun yoki o'quvchi, talabalar diqqatini buzmaslik maqsadida qo'llanilmaydi. Ko'pincha darslik uyda ham qo'llanilmaydi, uning o'rmini dars paytida tuzilgan konsept bosadi;

- Bilimlarni tekshirish asosan mashg'ulot vaqtining sezilarli qismini egallaydigan individual og'zaki so'rovlari, hamda uzoq muddatlarda o'tkaziladigan nazorat ishlari yordamida amalga oshiriladi;

- Mustaqil ishning nisbiy miqdori juda kam. O'quvchi, talabalarning olingan bilim, axborotlarni xotirada saqlab qolish, mustahkamlashga undaladi. Ta'limga an'anaviyko'rgazmali yondashuvda asosan dars o'tishning an'anaviy (ta'limga jarayoni markazida o'qituvchi bo'lgan) metodlari qo'llaniladi. Bu metodlarda o'ziga xos afzallik va kamchiliklar bor.

Metodlarning afzalliklari:

- aniq, ma'lum tushunchalarni bilish, ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lish;
- o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilish;
- vaqtadan unumli foydalanish;
- aniq ilmiy bilimlarga tayanish.

Metodlarning kamchiliklari:

- o'qitishning bunday tizimini eng jiddiy kamchiligi talabalarning mashg'ulotlardagi passivligi va bundan kelib chiqib bilim olish samarasi pastligi;
- o'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiya ishtiyoqini vujudga keltirmaydi;
- o'quvchi, talabalar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- eslab qolish darajasi hammada teng bo'lmagani sababli guruhda o'zlashtirish past bo'lishi mumkin.
- Mustaqil o'rganish va echimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

XX asrning boshlarida yashagan nemis pedagogi Rudolf an'anaviy dars haqida shunday degan ekan: faqat eshitish va ko'rish metodi bilan ta'limga o'quvchilar juda passiv zotlarga aylanadilar. Ular hayotiy haqiqat oldida ojiz bo'ladilar. Bu fikr hozirgi kun uchun yanada dolzarbdir.

Texnologik yondashuv ta'limga jarayonini o'zaro uzviy bog'lik bosqichlarga ajratish, qo'yilgan maqsadga erishish uchun belgilanadigan amallarni bajarish va malum ketmakteklidagi amalgaliga oshirishni loyihalashtirilgan ish va amallarni bir xil talab asosida bajarishni nazarda tutadi. O'quv materiali ta'limga maqsadiga mos tuziladi.

Uchinchi, tadqiqiyijodiy yondashuvda o'quvchi, talabalarning muammolarni echish qobiliyatini rivojlantirish, ularni yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishi, tashabbus ko'rsatishiga ko'proq e'tibor beriladi. Shaxsiy tashabbuslari faollashtirilib, qo'llabquvvatlanadi va rivojlantiriladi. Ijodiy fikrlashga undaladi. Ta'limga hamkorlikka asoslanadi.

Har ikki yondashuvda ham umumiy jihat: ta'limga jarayoni markazida o'quvchi turadi. O'quvchi, talabalarning mustaqil bilim olishga, o'qishga, mustaqil fikr yuritish, taqqoslash, xulosa chiqarishga o'rgatiladi. Darsda faol qatnashishlariga keng imkon beruvchi, ularni o'ylashga undovchi, hamkorlikda ishlashga o'rgatuvchi metodlar qo'llaniladi. Bu metodlarni qisqacha noan'anaviy metodlar deb ham yuritiladi. Bu metodlar ham o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega.

Noan'anaviy (ta'limga jarayoni markazida o'quvchi turgan) o'qitish metodlarining afzalliklari:

- o'quvchi, talabalarning darsda faol qatnashish imkoniyati kengligi;
- dars mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- nafaqat mazmunni o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy, tahviliy fikrlashni ham rivojlantirishga yordam berishi;
- muammolarni echish ko'nikmalarini shakllantirishi;

Ikkinchi davr (1950-1960 yillarning o'rtalari) o'qitish jarayoniga texnologik yondashuvning tatbiq etilishi bilan xarakterlanadi. Bu yondashuvning nazariy asosi dasturli o'qitish g'oyasi hisoblanadi. Uning texnologik asosini o'quv maqsadlari uchun maxsus mo'ljallangan audiovizual vositalar (teskari bog'lanish vositalari, elektron sinflar, lingafon xonalari, trenajyorlar) tashkil etadi. Bu davrda ta'limga texnologiyasi deyilganda muqarrar ravishda oldindan rejorashtirilgan natijaga olib keluvchi pedagogik jarayonning ilmiy tavsifi (vosita va metodlari majmui) tushunila boshlandi.

Bu davrda pedagogik texnologiyaning kasbiy kategoriyasi sifatida e'tirof etilishi, dasturli o'qitish g'oyasi (1954 yil) asoslab berildi (muallif B. F. Skinner) va bu hol pedagogik texnologiyadagi ustuvorliklarning o'zgarishiga sabab bo'ldi.

Uchinchi davr pedagogik texnologiyaning pedagogikadagi nazariy

bilimlar tarmog'i sifatida e'tirof etilishi. 70 yillar pedagogik texnologiya bazasi asosining kengayishi bilan xarakterlanadi.

Pedagogik texnologiyaning asosini yaratishda informatika, telekommunikatsiya nazarysi, pedagogika, tizimli tahlil fanlarining yutuqlariga tayanildi. Pedagogik texnologiyaning metodologik asosi o'zgardi. Oq'zaki o'qitishdan audiovizual o'qitishga o'tildi. Ayniqsa, 1976 yili birinchi shaxsiy kompyuter «APPLE» ning yaratilishi (mualliflar: Stiv Jobs va Stiv Uoznik) ta'lif sohasida ham katta o'zgarishlarga olib keldi.

Hozirgi vaqtida pedagogik texnologiyani e'tirof etishning to'rtinchidagi davri davom etmoqda. Bugungi kunda pedagogik texnologiya fanlararo bog'lanishni amalga oshiruvchi jarayon sifatida tan olimmokda.

1998 yili YuNESKO tashkilotchiligidagi «XXI asrda oliy ta'lif – yondashuvlar va amaliy tadbirlar» mavzusida o'tkazilgan jahon anjumani Deklaratsiyasi yangi asrda oliy ta'limga bo'lgan talab misli ko'rilmagan darajada o'sib borishi, ya'ni yosh avlodning yangi bilim, g'oya va ko'nikmalarini egallashi, ijtimoiymadaniy va iqtisodiy taraqqiyotda uning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini kengroq anglashga intilish kuchayishini ta'kidladi.

Pedagogik texnologiya mohiyati jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi. Chunki har bir texnologiya o'z xususiy sohasi, metodlari va vositalariga ega.

Pedagogik texnologiya va inson kapitaliga investitsiya tushunchalarining hayotga kirib kelishini deyarli bir davrda yuz berishi bejiz emas. Chunki har ikkisi ham sog'lom mustaqil fikrlay oladigan, vaziyatni to'g'ri baholab, samarali variantni farqlay biladigan, tanlagan mutaxassisligi bo'yicha talabga muvofiq malaka, ko'nikmaga ega bo'lishing ob'ektiv zarurligini ko'rsatuvchi, ta'kidlovchi tushunchalardir. Pedagogik texnologiyaning mohiyati, unga asoslanib dars jarayonini tashkil etish haqida kamida yarim asr davomida ilmiy munozaralar olib borilyapti. Bu munozaralarning mazmuni, natijasi turli mualliflar pedagogik komissiyalar va uyushmalarning ta'rifu tafsiflarida o'z aksini topdi. Bir guruh mualliflar pedagogik texnologiyani o'qitishning zam'onaviy vositalari majmuasi deb hisoblashsa, boshqalari kommunikatsiya jarayoni, uchinchi guruhdagilar o'qitish jarayoni va vositalarining bir butunligi deb qarashadi.

AQSh pedagogik texnologiyalar va kommunikatsiyalar uyushmasi 1979 yili pedagogik texnologiyalarning ma'nosi to'g'risidagi munozaralarga yakun yasab, uning rasmiy ta'rifini e'lon kildi. Bu

ta'rifga ko'ra pedagogik texnologiya odamlarning g'oyalarni, bilimlarni o'zlashtirishi, ta'lif olishni rejalashtirish, ta'minlash, baholash va boshqarish faoliyatini tashkil etish metodlari va vositalarini o'z ichiga qamrab olgan majmuaviy integrativ jarayondir.<sup>2</sup> Lekin xozirgi paytda ham bu haqdagi munozaralar to'xtagani yo'q.

Mashhur pedagog olim Bespalko V.P. pedagogik texnologiya bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir, deb ta'riflagan. Pedagogik texnologiyani teran ma'nosini V. P. Bespalko, birinchidan, pedagogikadagi ekspromtlardan xoli bo'lish va ta'lif jarayonlarini loyihalashda, ikkinchidan, o'quvchining o'qish, bilim olish faoliyati tuzilishi va mazmunini ishlab chiqishda, uchinchidan, o'quvchining o'quv materialini o'zlashtirish sifatini, uning shaxs sifatida kamol topish darajasini nazorat etish va maqsadli tashxis qilishda, to'rtinchidan, o'quvtarbiya jarayoni tarkibiy qismlari (komponentlari) mazmundorligi va tizimini yaxlitligi tamoyilini joriy etishda ko'radi.<sup>3</sup> Pedagogik texnologiya respublikamiz pedagog olimlari tomonidan turlicha talqin etiladi. «Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir».<sup>4</sup> Tadqiqotchilar Sayidahmedov N, Mirzajonova D. ta'riflariga ko'ra «Pedagogik texnologiya bu ilmiy asoslangan didaktik jarayon amalga oshiradigan, samaradorligi va ishonchliligi yuqori bo'lgan hamda ta'lif natijasiga erishishni kafolatlaydigan pedagogik faoliyat»dir.<sup>5</sup>

Hozirgi paytda barcha pedagoglar pedagogik texnologiyaga berilgan eng mukammal ta'rif bu YuNESKO ta'rifi, deb tan olishadi. Lekin qizig'i shundaki uni inglizchadan tarjimasi turli kitoblarda farq qiladi. Masalan, «Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari»

<sup>2</sup> Silber K, H. Some implicational of the history of Educational Techology: we're all in this together. In: J. W. Brown and S. N. Brown. Educational Media Yearbook, Littleton, Colorado: Librares Unlimited, 1981, p. 21.

<sup>3</sup> Bespalko V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii. M: «Pedagogika», 1989, s. 192.

<sup>4</sup> Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: «Moliya», 2003, 6-bet.

<sup>5</sup> N. Sayidaxmedov, D. Mirzajonova. Pedagogik texnologiya ta'lif, zam'onaviylik va ilmiylik. Kasb-xunar ta'limi N:1 2005 yil.

kitobida «Pedagogik texnologiya – bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lism shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir»<sup>6</sup> deb qayd etiladi.

Boshqa mualliflar «Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uziy bog'liq holda ko'rib, butun ta'lism jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda (sistemali) majmuali yondashuv usulidan foydalanishdir» deb ta'riflangan, degan fikrni bildiradilar.<sup>7</sup> Yana bir kitobda «Pedagogik texnologiya – bu ta'lism shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birkalidagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil tizimidir» deyiladi YuNESKO ta'rifida, deb ko'rsatiladi.<sup>8</sup>

«Ta'lism texnologiyasi ta'lism modellarini optimallashtirish maqsadida inson va texnika resurslari va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlash tizimidir», deb beriladi, ta'lism samaradorligini oshirish yo'llariga bag'ishlangan seminar trening materiallarida.<sup>9</sup>

«YuNESKO ta'rifiga ko'ra, PT(pedagogik texnologiya) ikki ma'noga ega: o'qitishning texnik vositasi(O'TV) va PT, ya'ni dastlabki ma'noda «bu – o'qitishning texnik vositasi», keyingisi bo'yicha esa, «PT – bu rejalashtirish – joriy etish – baholash (densing – applying – assessing) chizig'i bo'yicha tizimli yondashuv. Bu pedagogik texnologiyaning barcha yangi ta'riflari va ularning kontseptsiyalari uchun xarakterlidir».<sup>10</sup>

Ko'rinib turibdiki, mualliflar o'z qarashi nuqtai nazaridan ta'rifi

<sup>6</sup> Farberman B.V., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamонавиј усуллари. Toshkent, 2002, 60-bet.

<sup>7</sup> Ziyomuhamedov B., Abdullaeva Sh. Ilg'or pedagogik texnologiya, Toshkent, 2001, 7- bet.

<sup>8</sup> Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat, Toshkent, 2003, 63-bet.

<sup>9</sup> «Ta'lism samaradorligini oshirish yo'llari.» mavzusidagi seminar-trening materialari. Toshkent, 2002, 41-bet.

<sup>10</sup> Pedagogik texnologiyaarning rivojlanish tarixi. Nashr etilgan materiallar sharhi. Kasb-hunar ta'limi. 2005, №2, 20-bet.

turlicha talqin etishga harakat qilishgan. Bir ta'rifda butun texnologiya, uni qo'llashning tizimli metodi siftida talqin etilsa, ikkinchisida, ta'lism jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda (sistemali) majmuali yondashuv usulidan foydalanishdir deyilsa, boshqalarida esa metodlar haqida ochiq fikr bildirilmay, ko'proq tizim sifatidagi tomoniga e'tibor qaratiladi.

Turli qarashlarni hisobga olgan holda pedagogik texnologiya ta'rifiga yondashsak, "ishlab chiqarish" natijasi "mahsuloti" – ma'lum malakaga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlash uchun ilmiy asoslangan didaktik jarayonni amalgalash oshirish, ya'ni o'qitish jarayonini qo'yilgan maqsadga ko'ra izchil ketmaketlikda, turli metodlarni qo'llash orqali samarali ta'lism natijasiga erishishning ishonchlilagini ta'minlovchi pedagogik faoliyat deb tushuntirish mumkin.

Pedagogik texnologiyada ta'lism va tarbiya umumiylar tarzda qaratadi. Lekin hayot ko'rsatdiki, ta'lism sohasidagi texnologiyani hamma vaqt ham tarbiya sohasida qo'llab bo'lmas ekan. Sababi, ta'lism jarayonida maqsadni tashxislash va rejalashtirish imkonini mavjud. Tarbiya jarayonida esa maqsadni tashxislab bo'lmaydi. Bundan tashqari har qanday pedagogik texnologiya pirovard maqsadga erishishni ta'minlashi zarur. Lekin hozirgi vaqtgacha pedagogikada insonning tarbiyalanganlik darajasini, insonda shakllangan muayyan shaxsiy sifatlarni, insoniy qadriyatlarni, umuman olganda unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish natijalarini aniqlash juda qiyin va bu mezonlar ishlab chiqilmagan.

Pedagogik texnologiya pedagogining talabalarga ta'sir qilishni tashkill etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi.

Hozirgi davr ta'lism texnologiyalari muammosi, pedagogik innovatsiya tajribalari ularni bir tizimga tushirish va aniqlashtirishni talab qiladi. Oliy maktab oldida pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari, ularning tasnifi mohiyatini ochib berish va o'quv jarayonining texnologikligi muammolarini ta'minlash masalasi turibdi.

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lism amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o'rinnegalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlaridagi o'rni hali noma'lumligicha qolib kelmoqdadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi 29

muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

V.P. Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalilaniladi. Shu tariqa V.P. Bespalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi. Afsuski, hozirigi qadar pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo'q.

Pedagogik texnologiya ta'lif jarayoniga jadallik bilan kirib borayotgan bo'lsa ham, uning maqomi noaniqligicha qolib ketmoqda. Tadqiqotchilarning ishlarida fan va amaliyot oralig'idan o'rinnegallamoqda.

N.F. Talizina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'idan tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Ulsiz pedagogik jarayon texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida asoslanmay qoladi.

Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

Shunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta'lif amaliyotini yangi yoki zamonalivylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'lifning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy evropada ta'limi isloq qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blu, J. Koroll, P.YA.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I. Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, YU.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va

didaktikachilarga taalluqlidir.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan bo'lib, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

T.A.Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya'ni o'qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi. Boshqalarida yo kompyuter orqali dasturlashtirilgan o'qitish yoki o'qitishning muammoli tuzilmasi ajralib turadi.

L.V.Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. Bu muammoni tadqiq etish, o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun, pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lif tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

"Pedagogik texnologiya - psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi" (B.Lixachev).

"Pedagogik texnologiya — o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi" (V.P. Bespalko).

"Pedagogik texnologiya - rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi" (I.P. Volkov).

"Texnologiya - ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi" (V.M. SHepel).

"Pedagogik texnologiya - talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tbmonlama o'ylangan modelidir." (V. M. Manaxov).

"Pedagogik texnologiya - bu ta'lif shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birqalikdag'i harakatlan vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil

metodidir” (YUNESKO).

“Pedagogik texnologiya - pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniqidigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo‘lishning tizimli yig‘indisi va tartibini bildiradi” (M.V.Klarin).

“Pedagogik texnologiya - o‘zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta’riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi”. (G.K. Selevko).

Bu ta’riflар таҳлилдан педагогик texnologiya natijani qo‘lga kiritish uchun ta’lim doirasida zarur bo‘lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin.

Ta’lim texnologiyasi deganda ta’limning belgilangan maqsadi va talabaning bilim darajasiga ko‘ra o‘quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo‘lishini ta’milovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

Bu tadqiqotlarni tahlil qilgan holda ushbu ta’rifni berish mumkin:

Pedagogik texnologiya ta’lim maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlanish tizimi loyihasidir.

Oliy ta’limni isloh qilish, bu masalalarga ilmiy asoslangan nuqtai nazardan yondashishga majbur etadi. Har qanday loyihalash, o‘qitishning ilmiy asoslangan vositalari bo‘lgani holda, uning texnologikligi hisoblanmaydi.

Loyihalash metodologik funksiya bajaradi. U talabaning psixik rivojlanish qonuniyatlar, o‘quv jarayonining rivojlanish xususiyatlari va pedagogik boshqaruv usullarining tadqiqot vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Oliy o‘quv yurtida ta’limni takomillashtirish maqsadida pedagogik muloqotning yangi shakllari, axborotlarning tarkibiy qismlarini qayta qilinadi.

Texnologik taraqqiyot, bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta’lim iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir.

O‘qitish texnologiyasi ta’limning faoliyatini ta’milaydi, bilimlarni mehnat jarayonigatbiq etishni ta’milaydi, pedagogning ongliligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo‘liga ta’sir

Kasbiy o‘qitish texnologiyasi shaxsni intizom, iroda va ixtisoslikka bo‘lgan qiziqishni yuzaga keltiradi. Mutaxassisiga bo‘lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta’lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo‘naltiradi.

Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash texnologik tamoyili bo‘lajak kasbiga qaratilgan maqsadlar, mazmun funksiyalari, o‘qitish metodlaridir. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalar ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyalar ta’riflari bo‘lgan turli yondashuvlar shuni ko‘rsatadi, haqiqatdan ham o‘qitish texnologiyalari fan va ishlab chiqarish hamda o‘quv-pedagogik jarayon oralig‘idan o‘rin oladi. Bu kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo‘lib, u o‘qitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog‘langan. U o‘quv faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalash va konstruksiyalash funksiyalarini o‘zida qamrab oladi.

O‘qitish texnologiyasi tarkibiga o‘quv jarayonini boshqarishning aniq usullari, boshqarish va o‘qitishning ayni istiqbolli tadbirlari haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilimlar kiritiladi. O‘quv jarayonining borishi sharoitlariga mos ravishda ularning izchilligi belgilanadi.

O‘qitish texnologiyasi, o‘qitish nazariyasi, o‘qitish texnikasi. Ular o‘quv faoliyatini boshqarish haqidagi pedagogik sohalardir. Ular - umumlashtirilgan darajasiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiya ta’lim istiqbolining jarayonlashtirilgan aspektidir.

O‘qitish texnologiyasini belgilash - bu kasbiy faoliyat sohasidagi ta’limiy va takomillashish samarasini ta’milovchi o‘quv jarayonini me’yoriy boshqarib turishdir.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning uch aspekti to‘g‘risida fikr yuritiladi: *ilmiy, tavsifiy, amaliy*.

Ilmiy aspektida o‘qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi hamda pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

Tavsifiy aspektida rejashtirilgan o‘qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroti asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

Amaliy aspektida pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi.

Ta’lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch satihi belgilanadi: *umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul)*.

Umumpedagogik texnologiya yaxlit ta'limgarayonini ifoda qiladi. Xüsusi metodik texnologiya bir fan doirasidagi o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish metodlari va vositalardan iborat bo'ladi.

Lokal (modul) texnologiya o'quv tarbiya jarayonining maxsus bo'limlariga texnologiyani tatbiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Pedagogikada, o'qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiyytexnologiyalar ham o'rinni olgan. Ta'limiyytexnologiyalar mazmum-axborot aspektini bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb hisoblanadi, ya'ni ular orasida hali ham aniq farqlar belgilanmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim.

Kasbiy ta'limgizda o'qitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarning o'zlashtirilishini, harakatlarning reflektivligini aks ettiradi va o'z kasbiy faoliyatini shakkantiradi.

Pedagogik texnologiya o'qituvchi va talaba faoliyati bilan belgilanadi. Faoliyatning bunday turlariga ko'ra pedagogik texnologiyaning tuzilmasi aniqlanadi.

Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi. *U konseptual asos, ta'limgarayoni mazmuni va texnologik jarayondan* iborat bo'ladi.

Har bir pedagogik texnologiya muayyan ilmiy konsepsiyaiga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyaning ilmiy konsepsiysi ta'limgarayonining maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslashlarni qamrab oladi.

Ta'limgarayoni mazmuni ta'limgarayonining umumiyyatini va aniq maqsadlari, o'quv materiali mazmunidan iborat bo'ladi.

Texnologik jarayon o'quv jarayonini tashkil etish, o'qituvchi faoliyati, talaba faoliyati, o'quv jarayonini boshqarish usullari, o'quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Tadqiqotchilar har qanday pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlarni belgilaydilar.

Izchillik pedagogik texnologiyaning mezonlari sifatida jarayonning mantiqiyligi, pedagogik texnologiyaning barcha qismlarining o'zaro bog'likligi, yaxlitligani o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyaning mezonlardan biri, uning boshqaruvga asoslanganligidir. U o'quv jarayoni diagnostikasi, uni rejalashtirish va

amalga oshirishni loyihalash, undagi o'qitish metodlari va vositalari bilan o'zgartirib turishdan iborat bo'ladi.

Pedagogik texnologiyaning samaradorlik mezonini ta'limgarayonining konkret sharoitlarida olinadigan yuksak natijalarni ko'zda tutadi.

Qayta tiklash pedagogik texnologiyalar mezonlardan biridir. Unda pedagogik texnologiyalarni boshqa o'quv yurtlarida qo'llash imkoniyati tushuniladi.

Shunday qilib, oliy maktabda mutaxassislarining kasbiy tayyorgariigi murakkab va doimiy harakatdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo'lg'usi o'qituvchining texnologik tayyorgariigi alohida o'rinni tutadi. U bo'lg'usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o'qishi, ijodiy shaxsnинг rivojlanishi, tafakkurning kasbiy yo'nalganligini idrok qilish, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillarni amalga oshirish bilan bog'langan.

Bo'lg'usi pedagogning texnologik tayyorgariigi, oliy o'quv yurtida pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishni talab qiladi. Oliy o'quv yurti ta'limgarayonida foydalilanidigan va keng tarqalgan pedagogik texnologiyalar: muammoli o'qitish, o'qitishning tabaqalashtirilgan va individual texnologiyasi, programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi, kompyuter axborot texnologiyasi, mualliflik texnologiyasidir.

### Nazorat savollari:

1. Pedagogik texnologiyaning mohiyati nimadan iborat ?
2. Jarayon nima ?
3. Pedagogik jarayon nima ?
4. "Pedagog texnalogiya" va "Ta'limgarayoni texnologiyasi" tushunchalarni farqi.
5. Jarayon va pedagogik jarayonlar tushunchasiga ta'rif bering.
6. Pedagogik texnologiya nima ?

### 2.2. An'anaviy va noan'anaviy ta'limgarayoni texnologiyalari

Ko'p yillab davomida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'limgarayoni texnologiyasi xos modellaridan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy dars – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'limgarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'limgarayon modelidir.

O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars – ko'p hollarda ta'limgarayonining birdan-bir metodi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, an'anaviy ta'limgarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois ba'zida an'anaviy ta'limgarayonining markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham atashadi.

Markazda o'quvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- O'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- Ilgari egallagan bilimlarni ham inobatga olish;
- O'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- O'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- Amaliyot orqali o'rganish;
- Ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlash;
- O'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- O'qituvchi-o'quvchilar uchun o'quv jarayonini yengilashtiruvchi shaxs;

- O'quv jarayonini baholash.

An'anaviy dars o'tish metodika ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalilanadi. Shu sabab, bu hollarda jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli – o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi o'qituvchi tomonidan o'quvchilarining qiziqishini orttirib, ularning ta'limgarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda babs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash tadqiqot rolli o'yinlar metodlarini qo'llash, rang-barang qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarini amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash rang-vaqtida foydalanish talab etiladi.

An'anaviy dars o'tishning asosiy tarkibiy qismlari:

1. Kirish.
- o'tgan materialni takrorlash
- dars maqsadini tushuntirish

- dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

2. Yangi mavzuni yoritish.

- yangi mavzuni kichik-kichik bo'lakchalarga bo'lib berish

- rang-barang misollar imkonli boricha ko'rgazmali taqdirmil qilish

- mavzudan cheklashmaslik

- materialning murakkab tomonlarini qayta tushuntirish ..

- o'quvchilarining tushunuvchanlik darajasini tekshirib borish

- teskari aloqani ta'minlash.

3. "Tepa – poya" mashq.

Biror misol (yoki masalani) o'quvchilar bilan qadamba-qadam hal qilish va tahlil qilish.

4. Yo'naltirib turiluvchi mashq.

O'quvchilar mashq (yoki masalani) mustaqil bajarishadi o'qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

5. Mustaqil bajariladigan mashq.

O'quvchilar mashqni mustaqil holda o'qituvchi yordamisiz bajariladi.

6. O'quvchilar tushunarilik darajasini tekshirish.

7. Yakunlash

Dars mavzusining asosiy tushunchalari va o'quv maqsadlarini jamlash.

Ta'limgarayonining noan'anaviy modellari. Bu modellar shartli ravishda 3 ga ajratish mumkin.

- hamkorlikda o'rganish modeli
- modellashtirish
- o'rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, ularni boshqacha qilib markazda o'quvchi turgan ta'limgarayonining modellari deb ham atashadi.

Modellashtirish – real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan xodisa va jarayonlarni ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) sinfonada yaratish va ularda o'quvchilarini shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta'limgarayonining olib keltirilishi.

Hamkorlikda o'rganish modeli – o'quvchilarini mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'limgarayonining olib keltirilishi.

O'rganishning tadqiqot modeli – o'quvchilarini muayyan muammoni yechishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

An'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'qituvchi bo'lgan) metodlarining afzalliklari:

- ✓ ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali;
- ✓ o'qituvchi tomonidan o'qitish jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi;
- ✓ vaqtidan unumli foydalanish;
- ✓ aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

Kamchiliklari:

- ✓ o'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar;
- ✓ o'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi;
- ✓ o'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;
- ✓ eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'limgaligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin;
- ✓ mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratiladi.

Noan'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) o'qitish metodlarining afzalliklari:

- ✓ o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- ✓ o'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi;
- ✓ tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- ✓ o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi;
- ✓ motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- ✓ o'tilgan materialning yaxshi eslab qolishi;
- ✓ muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- ✓ o'z-o'zini baholashning o'sishi;
- ✓ o'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobjiy munosabati;
- ✓ mustaqil fikrlay oldaigan o'quvchiningshakllanishiga yordam berish;
- ✓ nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirish;
- ✓ muammolar yechish ko'nikmalarining shakllanishi.

Kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etilishi;
- o'quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi;

• juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda ham o'qituvchi rolining past bo'lishi;

- "Kuchsiz" o'quvchilar bo'lganligi sababli «kuchli» o'quvchilarning ham past baho olishi.

O'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolar yechish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

O'qitish jarayonidagi mavjud an'anaviy ta'lim bilan qurollangan ta'lim muassasalari endilikda o'z oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishga ojizlik qilmoqda.

Taniqli olim M.N. Maxmutovning fikriga ko'ra, o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy sxemasi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini yetarli darajada rivojlantira olmaydi, ularning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini, fanga bo'lgan qiziqishlarini qondira olmaydi, faol fikrlashni hamda bilishni e'tiqodga, e'tiqodni esa ongli ijtimoiy maqsadga muvofiq faoliyatga aylantirishni ta'minlay olmaydi.

Maktab, kasb-hunar kolleji va oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining ilg'or tajribalari yoritilgan materiallarni o'rganish, shuningdek, kuzatishlar va suhbatlardan ma'lum bo'lishicha, ularning ko'pchiligi o'z amaliy faoliyatlarida kuchsiz avtoritar motivga asoslangan bir hildagi o'qitish jarayonlarini qisman o'zgartirgan holda foydalanishadi. Bunday hollarda o'zlashtirishning yuqori darajasiga deyarli erishib bo'lmaydi.

An'anaviy ta'lim texnologiyalariga asoslangan ma'ruza, seminar, sinov darslarining ta'lim jarayonida tutgan o'mi va qimmatini kamaytirmagan holda, ularni hozirgi zamon talablari asosida takomillashtirish yo'llari ustida qayg'urish zarur.

Mazkur darslarni takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi ko'zda tutiladi:

Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. Hamkorlik pedagogikasiga amal qilish.

1. Ta'lim jarayonini demokratlashtirish. O'quvchilarga tanlash huquqini berish.

2. Ta'im oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'zaro hamjixatlikka asoslangan qulay ijtimoiy – psixologik muhit yaratish.

3. Ta'im oluvchilarning ijodiy va mustaqil ishlarini samarali tashkil etish.

4. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyasi elementlaridan foydalanish.

Bugungi ta'lim jarayoni pedagogning shaxsga bo'lgan insonparvarlashtirilgan


munosabati bolalarni sevish, ularning taqdiri uchun qayg'urishi, bolalarga ishonchning yuqoriligi, o'zaro hamkorlikning vujudga kelishi, muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishi, ta'limga oluvchilarini to'g'ridan-to'g'ri majburlashdan voz kechish va aksincha ijobjiy rag'batlantirishning usutnligi tufayli ko'zlangan maqsadga erishish, bolalar faoliyatida uchraydigan kamchiliklarga chidamli bo'lish, ularni bartaraf etishning sarnarali usullarini qo'llashda narnoyon bo'lsa, ta'limga jarayonini demokratlashtirish esa o'qituvchi va o'quvchilar huquqlarini tenglashtirish, ta'lizm jarayonida ta'limga oluvchilarga tanlash huquqining berilishi, o'z fikri, nuqtai nazarini erkin bayon etishni taqozo etadi.

Noan'anaviy ta'limga jaaryonida ta'limga oluvchilar va o'qituvchilar munosabatining o'ziga xos jihatini ta'limga oluvchilar mustaqilligi va o'quv faoliyatini boshqarish emas, balki hamkorlikda tashkil etish, ta'limga olishda majburlash emas, balki ta'limga oluvchilarni ishontirish, biror-bir faoliyatni amalga oshirish buyruq orqali emas, balki shu faoliyatni samarali tashkil etish, shaxsning ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralash emas, balki erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Yangi munosabatlarning asosiy mohiyati, an'anaviy ta'limda ko'zda tutilgan natijalarni bermayotgan majburan o'qitishdan voz kyechish va uning o'rniiga:

- o'zaro ishonchga asoslangan talabchanlik;
  - ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilar o'rtasida qiziqish uyg'otish va ongli intizomni vujudga keltirish;
  - o'quvchilarni muvafaqqiyatli bilim olishga yo'llovchi hamkorlikning paydo bo'lishi;
  - muntazam faoliyatning tashkil etilishi;
  - tegishli talablarni jamoa orqali qo'llashni omal sanaladi.

Noan'anaviy ta'limgardiyi tashkil etishda:  
- o'rta saviyali o'quvchiga nisbatan mo'ljal olishdan voz kyechish;  
- o'quvchilarning eng yaxshi sifatlarini aniqlash va rivojlantirish;  
- ta'limda psixologik-pedagogik diagnostikani qo'llash orqali  
o'quvchilarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyatni, shaxsiy sifatlari, aqliy  
faoliyatning  
xususiyatlarini aniqlash;



1-rasm

## **Nazorat savollari:**

- Nazorat savonalar...

  1. An'anaviy ta'limning o'ziga xos jihatlarini ayтиb bering?
  2. «Noan'anaviy ta'lim» tushunchasini izohlang?
  3. Zamonaliviy o'qitish jarayonini takomillashtirish zarurati nima uchun paydo bo'ladi?
  4. Noan'anaviy – darsga nisbatan qanday talablar qo'yiladi? .

### 2.3 Muammoli ta'lim texnologiyasi

Muammoli ta'limganligiga qarab, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'limganligini tashkil etish nazarda tutiladi. Hozirgi oliv muktabdagagi samarador o'qitish texnologiyasi - bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi. Muammoli

o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolar va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli o'qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o'qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

Hozirgi pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli ta'rif va tavsiflari bor. Bizningcha, nisbatan to'liq va aniq ta'rif M.I.Maxmutova tomonidan berilgan bo'lib, unda muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirdari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlarini qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo'lgan qiziqish, talab va.x.k) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini, o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida, inson faoliyatining muayyan qonuniyatları, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishdagi obyektiv qonuniyatları hamda didaktik tamoyil — muammolilikka tayanadi.

O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili, psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat, kutilmagan xayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsiyonal va hissiy holati unga fikrlash va aqliy izlanish uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikr yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas.

U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga

kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'la bermasligini ta'kidlash o'rini bo'ladi. YAngi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Muammoli vaziyat har qanday mashaqqat farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan obyekt (tushuncha, fakt)ning unga awal va ayni vaqtida muhim bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Shunday qilib, muammoli vaziyatning mohiyati shuki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunish va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatdan chiqa olish, hamma vaqt muammoni, ya'ni nima noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog'langan bo'ladi.

Muammoli vaziyatni fikriy tahlil qiladigan bo'lsak, u avvalombor talabalarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o'rinda izchillik yorqin ko'rindi: avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi.

Muammo uch tarkibiy qismidan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va awalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalgalash oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, shunda talabalar o'zlaridagi egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki yechilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uni mustaqil hal kilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning yechilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi.

## O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

- yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning qo'yilishi;
- talabalarda pota 'lumni topish yo'lida izlanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasining bo'lisi.

O'quv muammosini yechish jarayonida talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning yechilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qo'yish hamda gipotezani asoslashdir.

O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uning hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari, ma'lum va noma'lumning o'zaro munosabati xarakteri bilinga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, muammoli o'qitishning zaruriy sharti talabalarda haqiqatni va uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobji munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi.

Talabalarning muammoli o'qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda talabalar mashg'ulotda muammoni ifodalab berishidan iborat bo'ladi, ya'ni bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishi mohiyatini (ya'ni ushbu damda unga nima ma'lum bo'lsa) so'z bilan ifodalab beradi, so'ngra muammoning yechilish usullarini qidiradi va bunda turli taxminlarni olg'a suradi, talabalar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi. Izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so'ng tugallanadi.

Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: muammoli vaziyat - o'quv muammosi - o'quv muammosini yechish uchun izlanish - muammoning yechilishi.

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon talabalarga tayyor haqiqatni (yechimni) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda ongida qayta ishJashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

Muammoli o'qitish bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, atrof-muhitga o'zining faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina talabalar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarini shakllantirish hamda qo'lga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga fatbiq etishga intiladi.

Ayrim hollarda o'qituvchi talabalarda nafaqat qiziqish uyg'otishi kerak, balki o'quv muammosini ö'zi hal qilib qo'ymasligi va boshqa hollarda talabalarning o'quv muammosini yechishdagi mustaqil ishlariga rahbarlik qilishi lozim, natijada talabalarda bilimlarga mustaqil erishish qobiliyati shakllanadi hamda gipoteza qo'yish va uni isbotlash orqali yangi aqliy harakat usullarini topadi hamda bilimlarni bir muammodan boshqasiga ko'chirish ko'nikmasini hosil qiladi, diqqat va tasavvurlari rivojlanadi. Talabalar muammoli o'qitish jarayonida muammoli vaziyatda o'quv materiallarini idrok qilish orqali bilim va aqliy harakat usullarini o'zlashtirar ekan, o'rganilganlarni mustaqil tahlil qilar ekan, gipotezalar qo'yish va ularni isbotlash orqali o'quv muammolarini shakllantirar va yechar ekan, bunda talabalarning intellektual faolligi ta'minlanadi.

Shunday qilib, muammoli o'qitishning vazifasi, talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatları usullarini samarali o'zlashtirishga hamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini hosil qilish, bilish mustaqilligi hamda o'quv va tarbiya muammolarini hal qilishdir.

O'quv jarayonining amaliy tahlili muammosi o'qitishning o'ziga xosligini belgilash imkoniyatini ochadi. Muammoli o'qitishning mohiyati, ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborotlarni o'qituvchining maxsus tashkil qilishidan iboratdir.

Muammoli o'qitishni tashkil etishning birinchi sharti o'quv axborotlarining takomillashib borishi tizimidir.

Muammoli o'qitishning ikkinchi shartida muammoli o'qitish amalga oshiriladi va unda axborotning o'quv vazifasiga o'tkazilishi vaqtida uni yechish usulini tanlash imkoniyati ko'zda tutiladi.

Muammoli o'qitishning uchinchi sharti ta'lim oluvchining subyektiv mavqeyi, ularning bilish maqsadlarini anglab etishi va qaror qabul qilishi, masalani hal qilish va natijani qo'lga kiritish uchun o'zlarining ixtiyorida bo'lgan vositalarni baholay bilishidir.

Muammoli o'qitishga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi unda qo'llanadigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda: ijodiy, qisman-ijodiy yoki evristik, axborotlarni muammoli

bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish asosiy metodlar hisoblanadi.

Ijodiy metod ta'lif oluvchining ijodiy mustaqilligini to'la amalga oshiradi. Unda talaba o'qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtida o'zlar ham o'quv muammosini shakllantiradi, o'zi mustaqil gipotezani yechishga harakat qiladi, izlanishni amalga oshiradi va provard natijaga erishadi. Shu tariqa ijod metodi qo'llash bilan talabalar faoliyati, olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi. O'qituvchi faqat talabalarning ilmiy izlanishlariga umumiy rahbarlik qiladi. Vazifalar esa ularning mustaqil o'quv-bilish xatti-harakatlarining to'la davriyligini ko'zda tutadi: yo tahlilgacha axborotlar yig'iladi yoki yechilishiga qadar o'quv muammosi qo'yiladi hamda yechimlar tekshirib ko'rildi va yangi bilimlar joriy qilinadi.

Ijodiy metod ta'lif oluvchidagi uzoq vaqtini va maxsus sharoit yaratilishini talab qiladi.

Talabalarning ijodiy ishlari shakliy jihatdan rang-barangdir. Ular ma'ruza matnini tayyorlash va seminarga tayyorgarlik ko'rish, u yoki bu masalaning nazariy holatini (adabiyotlar bilan birma-bir ishslash, hujjatlarni arxivda o'rganish) o'rganish, ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar tayyorlash va boshqalardir.

Qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo'laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo'llanadi unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini yechishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda talabalar o'quv muammosining qo'yilishida, gipotezani taxmin qilish va isbotlashda faol qatnashdilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy unsurlarni o'zida qamrab oladi. Bunda o'qitishning qidiruv (izlanish) suhbat, o'qituvchining bayoni, faktlarni kuzatish va umumlashtirish usullari qo'llanadi. Bu hollarda talabalarning reproduktiv va qidiruv (izlanish) faoliyatining muvofiqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o'quv muammosining mustaqil hal qilinishidan to ulardan aksariyati yechilgunga qadar kuchli o'zgarib turishi mumkin.

Materialni muammoli bayon qilish. Bunda ijod o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va tobora faollashtirib boriladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishda, uning yechilishini o'zi ta'minlaydi. Bunda o'qituvchi ziddiyatlarni ta'kidlaydi, uni barchaga eshittirib muhokama qiladi, o'z mulohazalarini bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida asoslaydi. O'qituvchi bu tadbirlarni

muvaffaqiyatli amalga oshira olsa, talabalar uning fikrlari borishiga diqqat bilan qo'shilib boradi, muammolarning yechilish oqimiga qo'shilib ketadi hamda birga fikr yuritadi. Birga hayajonlanadi, shu tariqa mashg'ulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda o'qituvchi talabaning bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish yo'li bilan boshqaradi va shu orqali auditoriyadagi o'rganilayotgan materiallar bo'yicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi va talabalarni o'ylab fikr yuritishga majbur qiladi. O'qituvchi tushunilmagan savolni hal qilishidan oldinoq talabalar o'zlaricha o'z javoblarini tayyorlab qo'yadilar va uni ma'lum muddat o'tgach o'qituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaidilar.

Materialni muammoli bayon qilish axborotni bayon qilishdan tubdan farq qiladi. Chunki unda u yoki bu hodisaning belgilari, xossalari, tushunchalari, qoidalari shunchaki tasvirlab beriladi, tayyor xulosalar bayon qilinadi.

O'quv axborotlarining muammoli bayoni metodidan foydalanishning boshqa varianti, fan taraqqiyoti tarixidagi u yoki bu qonunning olimlar tomonidan kashf etilishi yo'lini yoritib berish bo'lishi ham mumkin.

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi ehtimol ko'ringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: o'quv materialiga talabalar diqqatini jalb qilish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellektual zo'riqish mashaqqatlariga olib kelish, talabalar tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va ko'nkmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bo'lgan talablarini qondira olmasligini ko'rsata bilish hamda talabalarga o'quv muammolarini tahlil qilishga, uning yechilishidagi eng ratsional yo'llarni aniqlashda yordam berish kerak.

O'quv jarayonidagi muammoli vaziyatning bir necha turlari farqlanadi:

1. Talabalar qo'yilgan vazifaning yechilish usulini bilmaydilar, muammoli savolga javob berolmaydilar.

2. Talabalar avval olgan bilimlarini yangi sharoitda, holatda foydalanish zaruriyatiga duch keladilar.

3. Vazifaning nazariy jihatdan yechilishi mumkin bo'lgan yo'li va tanlangan usulning amaliy jihatdan qo'llash qiyinligi orasida ziddiyat yuz beradi.

4. Vazifaning bajarilishida natijaga amaliy erishish va talabalarda uni nazariy jihatdan asoslashga bilimyetishmasligi o'rtasida ziddiyat yuz beradi.

Adabiyotlarda muammoli vaziyat yaratishning quyidagi ko‘p uchraydigan-usullari qayd qilinadi:

- hodisalar, o‘rganilayotgan tushunchalar mohiyatini tushuntirish uchun muammoli vazifalar qo‘yish;
- olingan bilimlarning amaliy tadbipi usullarini topish uchun muammoli vazifa qo‘yish;
- talabalarni hodisalar va faktlar orasidagi ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni tushuntirib berishlariga undash;
- ilmiy tushunchalari va hayotiy tasavvurlari orasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradigan fakt va hodisalarni tahlil qilishga undash;
- talabalarni fakt, hodisa, xatti-harakatlar, xulosalarni solishtirish, qiyos qilishga undash;
- talabalarni go‘yo tushunib bo‘lmaydigan xarakterdagi va fan tarixida ilmiy muammoning qo‘yilishiga sabab bo‘lgan faktlar bilan tanishtirish.

Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari uning boshqa variantlariga chek qo‘ymaydi. Har bir o‘qituvchi o‘zining amaliy faoliyatida o‘quv materiallari bilan ijodiy ishlash jarayonida uni tashkil qilishning turli imkoniyatlarini qidirishi va topishi mumkin.

Talabalarning fikrlari tobora qiyomiga yeta borib, muammoli vaziyat ularda ma‘lum hissiy hozirlikni vujudga keltiradi. Mustaqil amalga oshirilgan bilish jarayonidan, kashfiyotlardan qoniqish hosil qiladi. Xayratga tushish, tushkunlik yoki shodlik hissiyotlari muammoli vaziyatni to‘g‘ri tashkil qilish belgilari bo‘lib xizmat qiladi. Ma‘lumki, yuqori ko‘tarinkilik bilimlarni samarali o‘zlashtirish, haqiqatni qidirish va unga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Muammoning murakkabligi, talabalarning bilim saviyasi va malakasi, ularning ijodiy faoliyati ko‘nikmalar, didaktik maqsadga yo‘nalganligiga qarab muammoli o‘qitishda talaba va o‘qituvchi o‘zaro munosabatlarning turli variantlari bo‘lishi mumkin, ya’ni muammolilikning turli sathlari amalda bo‘lishi mumkin.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan muammolilikning uch sathi haqida fikr yuritiladi:

Birinchi sathda o‘qituvchi o‘zi muammoni qo‘yadi, uni qidirishga yo‘naltiradi.

Ikkinci sathda o‘qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, talabalar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va yechadilar.

Uchinchi sath — oliv sath bo‘lib, unda o‘qituvchi shunday qoidani ko‘za tutadi: muayyan muammoni ko‘rsatib bermaydi, balki unga talabalarni “ro‘baro” qiladi hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyatga yo‘naltiradi, ularni boshqaradi va natijani baholaydi. Talabalar esa muammoni mustaqil anglaydilar, uni shakllantiradilar, uning yechilish usullarini tadqiq qiladilar.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda talabalarning ijodiy faoliyati reproduktiv, qayta ishlab chiqish metodlarini shakllantirmsandan avval amalda bo‘la olmasligi ta‘kidlanadi. Agar o‘rganilayotgan kursning (bo‘lim, mavzuning) mohiyatini, ulardan foydalanishning zarur metodik materiallari va qoidalarini talabalar bilmasa va anglamasa, o‘qituvchi ularning ijodiy faoliyatini tashkil eta olmaydi.

Demak, muammoli o‘qitish yetarli darajada samarali bo‘lishi uchun u yaxlit o‘quv-tarbiya jarayonining uzviy qismi bo‘lishi kerak.

Muammoli ma‘ruzalar o‘tkazish jarayonida talabalarda ijodiy faoliyatga zarur bo‘lgan motivlar, qimmatli yo‘l-yo‘riqlar va yo‘llanmalarning shakllanganligi muhim o‘rin egallaydi.

Ta‘kidalash joizki, o‘quv faoliyati motivlarining doirasi juda ko‘p motivlar yig‘indisi bo‘lsa-da, ulardan ikki guruhi belgilovchi hisoblanadi.

Birinchi guruha maxsus motivlar taalluqli. Ular talabalar tomonidan barcha hayotiy ehtiyojlarni chuqur anglash, mutaxassis bo‘lib etishishi uchun bilimlarni egallashning ijtimoiy zarurligini tushunishni qamrab oladi. Bu guruh motivlarini o‘qituvchi kursning amaliy xarakteri va kasbiy yo‘nalganligini namoyish qilish orqali talabalarning tushunchalarini amalda qo‘llash yo‘li bilan kuchaytirishi mumkin.

Ikkinci guruh motivlari o‘quv fanlari va bilishga bo‘lgan qiziqish bilan bog‘langan. Bu gurah motivlari mohiyatini o‘qituvchi talabalardagi o‘quv fanlariga bo‘lgan qiziqishni bilish to‘g‘risidagi bilimlarni o‘quv qurilmalarning “tushunchalar asosida xulosalar» hattisbotlovchi qurilmalarning mantiqiy usullari, aniqlanmalar, hislatlar va boshqa tizimining mantiqiy usullari, shakllantirishning didaktik qimmatini belgilovchi o‘quv materialiga urg‘u beriladi.

Talabalarda yuqorida bayon qilingan malakalarni shakllantirish uchun maruzani o‘tkazish uchun shunday tayyorgarlik ko‘rish ko‘za tutilishi kerakki, ular tayyor bilimlarni chaqqonlik bilan harakat usullariga aylantira olsin. Bu didaktik maqsadga erishish uchun 49

talabalarning yechimlarni qanday shakllantirishlariga, tushunchalar yechimining qanday usullari borligiga, u yoki bu ifoda qaysi talablar asosida qoniqtirilayotganiga, dastlabki omil, argumentlar hamda xulosalarga diqqatni jalb qilish lozim.

Muammoli o'qitishning talablar darajasidagi sifatini ta'minlash, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida seminarlar o'tkazish mumkin.

Ma'lumki, bunday seminar o'tkazishning dastlabki maqsadi ma'ruza yoki axborotni jamoa bo'lib muhokama qilishdir. Seminarning samaradorligi albatta talabalami unga tayyorlash sifatiga bog'liq. Ayniqsa, ma'ruza va axborot tayyorlayotgan talabalar bilan ishslash muhim ahamiyatga ega.

Talabalami seminarga tayyorlash bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Birinchi bosqichda o'qituvchi talabaning seminar mavzusini aniqlab beradi. Mavzuni tanlash va bo'lg'usi ma'ruza yoki axborotni tayyorlashda ularga nisbatan shunchaki o'qituvchi, talaba deb qaramaslik kerak, balki ularni seminarda muhokama qilinadigan mavzuning ahamiyatini, dolzarbligini fikrlashga, o'quv fanini lozimligini anglashga, bo'lg'usi kasbiy faoliyatining hozirgi ijtimoiy, ilmiy muammolarini rejalashtira olish darajasiga olib kelish zarur. Bunda vaqt ni tejash, tashkiliy ishlarni olib borishni jadallashtirish uchun talabalarga mavzu bo'yicha adabiyotlarni, imkonim boricha, mavzulari, paragraflari va sahifalarini ko'rsatgan holda tavsiya etish lozim.

Talabalami ma'ruza va axborotlarga tayyorlashning birinchi bosqichida uning mavzusi bo'yicha referatning batafsil rejasini tuzish vazifasi yuklanadi.

Ikkinci bosqichda talabalami ma'ruza qilishga tayyorlashda o'qituvchi u bilan birga referat rejasini muhokama qiladi, uning ayrim o'rinnarini tuzatadi. Bu o'z navbatida dastlabki fikrlarni tezlikda tuzatish, aniqlik kiritish, to'ldirish imkonini beradi va u pirovard natijada bo'lg'usi ma'ruzaning sifatini oshiradi.

Uchinchi bosqichda o'qituvchi talaba tayyorlab kelgan referatning mazmuni bilan tanishadi. Zaruriyat tug'ilganda, unga savollar qo'yish, talaba esa bu suhbatdan so'ng tegishli tuzatishlar qilishi lozim bo'ladi. Shuningdek, shunday savollarni ham berish kerakki, talaba bu savollarga o'z chiqishida javob bersin. Ayni o'rinda talabaning seminarda ma'ruza qilish uslubi ham muhokama qilingani ma'quil.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, faqat ma'ruza bilan qatnashadigan talabalar bilan ishlab, boshqa talabalar nazardan chetda qolmasin. Balki guruhdagi barcha talabalar oldindan muhokama qilinadigan mavzular bilan tanish bo'lishi, seminar mavzusi bilan aloqador maruza va qo'shimcha materiallar mazmuni ustida ishlagan bo'lishi, mavzuga muvofiq ravishda olinayotgan bilimlarni nazorat qilishga va mavzuni muhokama qilishga tayyor bo'lishlari lozim. Bunday seminar mashg'uloti odatda muhokama qilinadigan mavzuning mohiyati va dolzarbli maruza materiali bilan bog'lashni eslatish bilan boshlanadi. Shundan so'ng talabalar o'rganilayotgan masalani muhokama qilishga faollashtiriladi, bilimlarini namoyish qila olishi aniqlanadi.

Muammoli o'qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o'quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko'chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Ijodiy o'quv faoliyati muammoli o'qitishning asosiy qoidasini saqlagan holda - ma'lum darajada harakatlarga erkinlik berish va bu harakatlarni bilish jarayonining butun tuzilmasi tizimida tartibga tushirish bilan boshqariladi.

Muammoli o'qitishdan foydalangan holdagina talabalarda o'quv muammolari va kasbiy vazifalarini yechishda ilmiy tekshirish jihatdan yondashuvni tarbiyalash, mustaqil bilish malakasi va metodlarini shakllantirish mumkin. Muammoli o'qitishni qo'llash, bilishni tushunishni shakllantirishga yordam beradi, pedagogik ijod va kasbiy mahoratni rivojlantirishga psixologik va kasbiy tayyorlikni shakllantiradi.

Muammoli o'qitish o'quv axborotlarining maxsus tuzilmasini ishlab chiqishni taqqazo qiladi. Muammoli maruza texnologiyasi savollar, gipotezalar tizimi, uning yechimi, nazorat va tuzatuvlarni amalga oshirish tizimi orqali mazmunni muntazam ochib borishni ko'zda tutadi.

Shuningdek, muammoli maruzada muammoli vaziyat va uni muammoli hal qiiish tizimi ham kiradi. O'quv jarayonida bunday texnologiyani joriy qilish qiziqishni uyg'otadi, aqlni rivojlantiradi, bilish qarshiliklarini yengish uchun yo'l-yo'riqlar berishni talab qiladi. Shu bilan birga mantiqiy tadqiq qilishga yo'llaydi va uni bosqichlar bo'vicha o'rgatadi, tafakkurning nazariy uslublarini tarbiyalaydi.

#### Nazorat savollari:

1. Muammoli oqitish deganda nijsani tushunasi?
2. Muammoli darsning tuzilishi qanday?


3. Muammoli o'qitish metodlarining tizimini tushuntiring.

4. Muammoli ta'lif texnologiyasining afzalliklari nimalardan iborat

#### 2.4. CASE texnologiyasi

Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o'qitish usuli sifatida xorijiy ta'lifda avval-boshda huquq sohasida qo'llanila boshladi: u ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilar yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tarbiq etila boshladi.

Ayni shu vaqtidan boshlab keyslarning boy to'plamini yig'di va mazkur uslubni ta'limning mustaqil konsepsiyasi darajasigacha olib chiqdi. Ayni shu sababga ko'ra keys-stadi uslubini ko'pincha garvard uslubi deb atashadi. O'z mohiyatiga ko'ra, garvard uslubi ta'lif oluvchilarning amaliy vaziyatlarni videomateriallar, kompyuter va dasturiy ta'minotdan foydalanih hal qilish bo'yicha intensiv treningidan iboratdir.



Keys-stadi (inglizcha case - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lif) keysda bayon qilingan va ta'lif oluvchilarni muammoni ifodalash

hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatlari tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lif uslubidir.

Keys-stadi - ta'lif, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo'yilgan ta'lif maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida proqnoz qilinadigan o'quv natijalariga kafolati yetishishni vositali tarzda ta'minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo'lgan ta'lif texnologiyasidir.

Keys-stadining ikki klassik maktabi - Garvard (Amerikada) va Manchester (Yevropada) maktablari mavjud. Garvard maktabi doirasida mazkur uslub yagona to'g'ri yechimni izlashni o'rgatish usuli hisoblanib, ikkinchi maktab keysda bayon qilingan muammoli vaziyat yechimining ko'p variantlilagini taklif qiladi. Amerika keyslari o'nlab sahifali matnni va ko'plab chizmalarni o'z ichiga oladi. Yevropa keyslari hajmi birmuncha kamroq.

Chet ellardagi biznes-maktablarda odatiy vaziyatlarni o'rganishga o'quv vaqtining o'rtacha 25 %dan 90 %gacha bo'lgan qismi ajratiladi. Masalan, Chikago universiteti biznes-maktabida o'quv vaqtining 25 % keyslar ulushiga, Kolumbiya universitetida – 30 %, Uortonda esa – 40 % to'g'ri keladi. Mashg'ulotlarni ushbu uslub bo'yicha o'tkazishga ajratiladigan soatlar soni bo'yicha uning "ilk ixtirochisi" – Garvard yetakchilik qiladi. Oddiy talaba HBSda o'qish vaqtida 700 tagacha keyslarni ko'rib chiqadi va buning uchun o'quv vaqtining 90 %gacha qismini sarflaydi.

Bunda shunday aniqlik kiritish kerak: moliyaviy fanlarga ixtisoslashgan maktablarda keyslar salmog'i asosiy fanlar - menejment, marketing, axborot texnologiyalari, xodimlarni boshqarish va shu kabilardan iborat maktablardagiga nisbatan ancha kamdir.


Mamlakatimizdagagi ta'lif sohasida keys-stadi, asosan, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo'llaniladi. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilayapti.

Keys-stadini iqtisodiy oliy o'quv yurtining ta'lif amaliyotiga keng tarbiq etishning dolzarbliji va zarurligi quyidagi omillar bilan bog'liq:

Birinchidan, mamlakatdagagi iqtisodiy ta'lifning umumiy yo'nalishi, uning nafaqat ta'lif oluvchilarda aniq bilimlarni shakllantirishga, shu bilan birga talabalarda fikrlash faoliyatni, nazariy bilimlarini amalda

qo'llashga tayyorlik va bunga qobililikni rivojlantirish, bo'lg'usi mutaxassislarda mustaqillik va tashabbuskorlik, boshqaruv va iqtisodiyotdagi tadqiqotlarning turli jihatlari bilan bog'liq keng doiradagi masalalarni idrok etish qobiliyatini ravnaq toptirishga yo'naltirilganligi bilan.

## CASE TUZILMASI



"Insonning qo'liga baliqni tutqazsang – u bir kun qorni to'q yuradi, mabodo insonni baliq tutishga o'rgatsang – u butun umri davomida ochlik nimaligini bilmaydi" - xitoylik donishmandlarda shunday yechimlarini qabul qilishga doir malaka va ko'nikmalar egallanmasa keyinchalik yaxshi boshqaruvchi bo'lib chiqish mumkin emas. Kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun o'zining boshqarish siyosatini ishlab keladigan turli xil vaziyatlarni tahlil etish malakalari va ko'nikmalarini egallashi, tahlil qila bилиш qobiliyatini o'stirishi, boshqaruvchiga xos xususiyatlarni orttirish zarur.

Maslahat berish mumkin, lekin bunday maslahatdan foydalanishga o'rgatish mumkin emasligi haqiqatdir. O'rganib olgach omadli iqtisodchi, moliyachi yoki menejera aylanib olishga imkon beradigan qandaydir yagona, universal uslub yoki usul mavjud emas. Shuning uchun iqtisodchilarni tayyorlashning hozirgi tizimi turli xil dinamik rivojlanayotgan amaliy vaziyatlar modellaridan keng foydalanishga

asoslanadi. Talabalarning keyslarni ishlab chiqish texnologiyalarini o'zlashtirishi, keysda taqdim qilinadigan amaliy muammoli vaziyatlarni tahlil etish, yakka tartibda va jamoa bo'lib ularni optimal hal qilish yo'llarini izlash malakalarini egallashi, bo'lg'usi mutaxassisda funksional vakolatlilikni shakllantirish - iqtisodiy faoliyatda o'zining boshqarish va tashkil qilish texnologiyalarini loyihalashtirish, iqtisodiy jarayon mantig'ini qurish usullari, shuningdek iqtisodiy vazifalarni mustaqil va mobil tarzda hal etish usullarini hosil qilishga yordam beradi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyotining nostandard vaziyatlarda bir tizimli asosda va samarali harakat qilish, oqilona yechimlarni qabul qilish qobiliyatini egallagan mutaxassislarga muhtojligi bilan.

Keysda har xil hayotiy vaziyatlar bayoni beriladi va ularning oqibatlari xususida mulohazada yuritish yoki qatnashchilar harakatlarining samaradorligini baholash yoxud muammoni hal etish usullarini taklif qilish talab etiladi. Lekin har qanday holatda ham amaliy harakat modeli ustida ishslash ta'lim oluvchilar – bo'lg'usi mutaxassislarda mehnat bozori talab qiladigan kasbiy jihatdan muhim xususiyatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

## Casening pedagogik passporti

### 1) Pedagogik annotatsiya

### 2) Talabaga uslubiy ko'rsatmalar

### 3) O'qituvchil-easeologning keyisologining caseni hal etish varianti

### 4) Ta'lim texnologiyasi

Uchinchidan, jahon tajribasi ko'rsatib turganidek, keys-stadi talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish, o'qishga qiziqish va motivlarni hosil qilish, ularni haqiqiy professionallar sifatida

yetishtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Keys-stadining bo'lg'usi iqtisodiy yo'nalishdagi mutaxassis shaxsining kasbiy va ijtimoiy jihatdan muhim fazilatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan usullari va vositalari, nazarimizda 3-jadvalda ishonarli tarzda aks ettirilgan.

5-jadval.

Mutaxassis fazilatlari	Keys-stadining shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan usul va vositalari
Mavhum sharoitlarda vaziyatni his etish va adekvat baholash, oqilona yechimlarni topish qobiliyati	Vaziyat sub'yekting fazilatlari va kamchiliklarini taqqoslash va baholash, vaziyatning rivojlanish mantig'ini ajratib olish, muammoning oqilona yechimini izlash
Bir tizimli fikrlash, bozor vaziyatidagi parametrlar va o'zaro aloqalarni tushunish	Vaziyat xususida har tomonlama fikr yuritish, uni maqsadli tahlil etish, sub'yektlarni ularning tuzilmayi-funksional ifodasida yaxlitligicha idrok etish
Mustaqillik va tashabbuskorlik	Mavhumlik sharoitida vaziyatlar tahlili, oqilona yechimning ishlab chiqilishida o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladigan va qo'llab-quvvatlanadigan mustaqillik va faoliy
O'zgarishlarga tayyorlik, qayishqoqlik	Muntazam o'zgarib turadigan vaziyatlarda optimal fe'l-atvorning ishlab chiqilishi
Amaliy yo'nalishlilik	Muammoli vaziyatning hal etilishida nisbatan amaliy natijaga erishish uchun doimiy izlanish
Axborotlar bilan ishslash mahorati	Asosiy axborotni izlash va tanlash, tuzilmalarga ajratish, yana qayta tuzilmalash, tahlil etish, tasniflash, bir shakJidan boshqacha shaklga o'tkazish, axborot almashinish

Kommunikativlik, empatiya	Muammoli vaziyat yechimi va uning maqsadga muvofiq tarzda hal etilishini tanlash yuzasidan o'z pozitsiyasini har doim aniq bildirish, dalillash va o'zining nuqtai nazarini himoya qilish; keys bilan guruh bo'lib ishslash, munozaralar va o'z fikrini o'tkazish paytida jamoaning oshkora muloqot va axborot almashinish, adolatli, konstruktiv va taktikali tanqidga hamda uni qabul qilishga, bиргалидаги faoliyatda ishonchga va hamfikrlikka asoslangan bahamjihat harakati
Muammoli, mantiqiy fikrlash	Muamoning izlanilishi va ifodalanishi hamda uning asosiy tavsifnomalari belgilanishi, uni hal etish usullari va vositalarining asoslanishi
Konstruktivlik	Muammoni hal etish modelining ishlab chiqilishi, konstruktiv yechimlarning izlanishi va ifodalanishi
Nazokatlilik	Jamoaning o'z fikrini o'tkazish, munozaralar, guruh bo'lib ishslashga asoslangan doimiy bahamjihat harakati

Va, nihoyat, keys-stadi interaktiv uslub bo'lgani sababli talabalar tomonidan unga nisbatan ijobji munosabat bo'lishiga erishadi, ular tomonidan unga nisbatan ijobji munosabat bo'lishiga erishadi, ular ushbu uslubni o'quv axborotini o'zlashtirish va undan foydalanish yuzasidan amaliy ko'nikmalarni ta'minlaydigan amaliy qo'llanma (praktikum) sifatida qabul qiladilar.

Keys – bu real hayotning «bir parchasidir» (inglizcha - TRUE LIFE, atamasiga ko'ra). Keys vaziyatning oddiy haqiqiy bayonigina emas, balki vaziyatni tushunish va baholashga imkon beradigan yagona axborot kompleksidir.

Vaziyat (situatsiya) (keyingi lotinchadagi situation - ahvol) – muayyan vaziyat, ahvolni hosil qiladigan shart-sharoitlar va holatlar uyushmasi.

Keysda bayon qilingan vaziyat institutsional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtida tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarining ideal tarzdag'i in'ikosidan iboratdir.

Muammoli vaziyat. Mazkur holda vaziyat sub'yektining hozirgi vaqtida yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniadi.

Keys-stadining mohiyati shundan iboratki, mohiyatiga ko'ra ko'rib chiqilayotgan muammoli vaziyat bo'yicha maslahatchilar rolini bajarishi kerak bo'lgan talabalarga quyidagilar taklif qilinadi:

- keysda bayon qilinganida ayni bir paytda tashkiliy hayotdagi tipik amaliy muammoni aks ettiradigan va amaliyotda ushbu muammoning hal etilishida o'zlashtirilishi va qo'llanilishi lozim bo'ladigan muayyan bilimlar majmuini dolzarblashtiradigan vaziyatni idrok etish va tahlildan o'tkazish;

- muammoli vaziyatni maqsadga muvofiq tarzda hal etadigan usullar va vositalarni izlash;

- taklif etilgan muqobil jihat(alternativa)larni baholash va ular orasidan qo'yilgan muammoga nisbatan eng qulay variantini tanlash;

- tanlangan muqobil usul(alternativa)ni amalga oshirish bo'yicha yechimni butun tafsilotlari bilan ishlab chiqish.

Keys-stadining mohiyatlari belgilarini ifodalaymiz:

1. Holati asosiy parametrлari bo'yicha muayyan diskret vaqtida ishlarning real ahvolini yana qayta tiklaydigan vaziyat shaklida taqdim etilgan institutsional tizim modelining mavjudligi.

2. Berilgan vaziyatning muammoliligi.

3. Vaziyatning to'liq chizmayi emasligi va, buning oqibati sifatida, unda mustaqil, shablon bo'lmasagan yechimlarni talab qiladigan mavhumlikning mavjudligi.

4. Yechimlarning ko'plab muqobil jihat (alternativa)larga egaligi: har bir qatnashchi o'zining bilimi, tajribasi va sezgi(intuitsiya)sidan kelib chiqib o'z variantini taklif qiladi.

5. Muammoli vaziyat optimal yechimining yakka tartibda, so'ngra jamoa bo'lib ishlab chiqilishi va ommaviy taqdim etilishi (Shuningdek, keys bilan mutlaqo yakka tartibda ishslashga va natijalarini yakka tartibda taqdim etishga ham yo'l qo'yiladi).

6. Muammoli vaziyat tahlili va uning yechimini ishlab chiqishdagi yagona maqsad.

7. Faoliyat natijalarini guruh bo'lib baholash tizimi.

8. Ta'lim oluvchilarda boshqariladigan hissiy (emotsional) keskinlikning mavjud bo'lishi.

9. O'qituvchi va talaba ta'lim jarayonida ayni bir paytda ham mas'ul, ham erkin bo'ladi:

- o'qituvchi keysning tayyorlanishi va uning o'quv-uslubiy ta'minoti, shuningdek undan samarali foydalanish uchun mas'uldir;

- talaba mashg'ulotga tayyorlanish va keys bo'yicha o'quv topshiriqlarini samarali bajarish uchun mas'ul, ayni bir paytda u muammoli vaziyatni tahlil etish natijasida yechimlar va xulosalarni ishlab chiqish borasida erkin ish tutadi;

- talaba o'quv sharoitida muammoli vaziyatni tahlil etish va hal qilishda xatoga yo'l qo'yishi mumkin, lekin u real hayotda qabul qilinadigan noto'g'ri yechim uchun mas'uliyat hissini sezishi kerak.

Ta'lim natijalarini rejalashtirish va ularga erishishda ta'limgagi oshkoraliq bilan qat'iyatlilikning qo'shib olib borilishi.

Keys-stadi ta'lim uslubi sifatida quyidagi didaktik o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- keysda taqdim etilgan aniq vaziyat ta'limga voqelev bilan o'zaro aloqasini ta'minlaydi, chunki u kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun muammolarni aks ettiradi. Bunda o'rganish jarayoni, o'z mohiyatiga ko'ra, real hayotda yechimni qabul qilish mexanizmini ifodalaydi;

- keys undan foydalanuvchiga muammolarni tahlil etish, bir xillashtirish va hal qilish yo'llarini izlashda erkinlik beradi;

- keysni ko'rib chiqishda talabalar ta'lim jarayonining tashkilotchilariga aylanadilar va bir-biri bilan o'zaro bahamjihat harakat qilish orqali real kommunikatsion holatlarni ifodalashadi (masalan, bank - korxona);

- ta'lim oluvchilar aniq vaziyatni ko'rib chiqish jarayonida muayyan umumlashgan, konseptual tusga ega bilimni shakllantirishga muvaffaq bo'lalar va ayni bir paytda oddiy umumlashtirish malakalarini orttiradilar;

- amaliy vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar nazariy tayyorgarlik davrida olingan bilimlar, shuningdek talabalarning o'z malaka va mahoratlaridan foydalanish va amalda qo'llanishga yo'naltiriladi;

- keys bilan ishlash natijalarining ommaviy taqdim etilishi taqdimotlar o'tkazish va matbuot anjumanlarida qatnashish: axborotni lo'nda, mantiqan va ko'rgazmali tarzda taqdim etish, savolni ifodalay bilish va javobni dalillash malakalarini hosil qilishga ko'maklashadi;
- keys-stadi ta'limning boshqa uslublaridan farqli ravishda nafaqat ta'lim berish va trening, shu bilan birga diagnostik/nazoratchilik funksiyalarini ham bajaradi.

Talaba imtihon oldidan keysni olishi: uni hal qilishi va amaliy vaziyat tahlilini hamda uni hal qilishga doir takliflarini yozma ish shaklida tadim etishi mumkin.

Keys talabalarga bevosita imtihon paytida taklif qilinishi ham mumkin. Lekin bunday holda u ancha qisqa bo'lishi, maqsadlari esa ularni talaba belgilangan vaqt davomida hal qilishga ulguradigan holatda bo'lishi kerak.

Talabalarning o'quv fani bo'yicha auditoriyadan tashqarida bajariladigan mustaqil ishi keyslar turkumining yechimini o'z ichiga olishi mumkin. Natijalarining grafikka binoan yozma taqdim etilishi (muddatlar o'quv rejasiga va ta'lim dasturiga muvofiq belgilanadi) o'quv axborotlarining o'zlashtirilishi, ushbu kurs bo'yicha DTsiga ko'ra nazarda tutilgan malaka va ko'nikmalarni operativ nazorat qilish va baholashga imkon beradi.

Keysning ko'p maqsadli tusga egaligi keys-stadining muhim afzalligidir: u vaziyat parametrlarini o'zgartirish bilan uning o'quv maqsadlarini ham o'zgartirishi mumkin.

Keys-stadi ta'limda quyidagi funksiyalarini amalga oshiradi:

- ta'lim beruvchilik: o'rganilgan mavzu/kurs bo'yicha bilimlarning mustahkamlanishi (nazariy ta'limdan keyin); ilmiy tadqiqot, amaliy vaziyatlarni tahlil etish usullari va vositalarini o'rgatish; muammolarni yakka tartibda va guruh bo'lib tahlil etish, strategiyalarni ishlab chiqish va yechimlarni qabul qilish qobiliyatları va malakalarini orttirish;
- rivojlantiruvchilik: bilish va ijodiy qobiliyatlarni, mantiqiy, bir tizimli tusda fikrash, o'zini o'zi tartibga solib turish, refleksiyani, muhitdagi o'zgarib turadigan shart-sharoitlarga ko'nish qobiliyatini rivojlantirish;
- motivatsion: o'quv fanini o'rganishga shaylik, yechimlarni mustaqil tarzda qabul qilishni rag'batlantirish;
- tarbiyachilik: mas'uliyat, mustaqillik, kommunikativlik, empatiya va refleksiyani shakllantirish;

- nazoratchilik (diagnostik): o'rganilayotgan mavzu yoki kurs bo'yicha o'quv axborotini o'zlashtirish, malakalar va ko'nikmalar sifatini tekshirish;
- treningli: o'rganilayotgan mavzu yoki kurs bo'yicha malakalar va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Keys-stadi texnologiyasi tuzilmasi. Keys-stadi texnologiyasi quyidagi usullar

va vositalarni o'zida jamlagan murakkab tizimdan iborat:

- ilmiy tadqiqot;
- ilmiy tahlil;
- o'qitish;
- axborotlar;
- kommunikatsiyalar;
- boshqaruv.

Ushbu usullar va vositalar keysda bayon qilingan muammoli amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida rejalashtirilgan ta'lim maqsadlarining amalga oshirilishi va prognoz etilgan o'quv natijalariga kafolatli tarzda erishilishini vositali ravishda ta'minlaydi.

Tizimdagagi har bir tarkibiy qism keys-stadi texnologiyasida o'zining muayyan funksiyalarini bajaradigan elementlarni o'z ichiga oladi.

## 2.5. O'yin texnologiyalari

O'yinli texnologiyalardan foydalananining asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birlashtiruvchi faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsnинг o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnni barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsnинг o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N.Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik

(ruhiy) xulq shaklidir.

L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasiga sifatida ta'riflaydi.

A.N. Leontev o'yinga shaxsnинг xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilarki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagи shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi.

Ular quyidagilar.

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhum qirralari S.A.Shamakov tomonidan yoritilgan. U erkin tufayli bahra olish uchun emas, balki hoxishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakteriga - «ijod maydoni»ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektida o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalahtirish va amalga oshirish, natjalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsnинг o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi. Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingan rollar;

- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- (o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mavnun) — ijro sohasi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalilanadi. O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ul'ar didaktik, taibiyyiy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarini qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatmi motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtiroslarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish hamda psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar «o'yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi.

Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi.

Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K. Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'naliishlari ishlab chiqilgan.

- ✓ Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'naliishlarda bo'ladi:
- ✓ didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- ✓ o'quv faoliyat o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- ✓ o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- ✓ o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- ✓ didaktik vazifening muvofaqiyatlari bajarilishi o'yin natijalari bilan boglanadi.

Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilingan. Oliy mifik mukammolik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi.

Ishbilarmonlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyatini nazariyasi bilan bevosita bog'langan.

Ishbilarmonlik o'yinlari mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N. Leontev, P.YA. Galperinlarning ishlarida nazariy asoslangan.

Ishbilarmonlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarni shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Ishbilarmonlik o'yinlari bilish va o'qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarda gurkirab rivojlandi. Tadbirkorlik o'yinlariga taqlidiy (imitasion) o'yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo'ldi. Taqlidiy o'yinlarga o'z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o'yinlar asos bo'lgan.

A.A. Verbiskiy ishbilarmonlik o'yinlariga o'qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o'yinlarida mashq qilish faoliyati va bo'lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun'iy va tabiiy tizim sifatida o'zaro nisbatlanadi. Shu tufayli tadbirkorlik o'yinlarini kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya'ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitatsiya) va aloqa yordamida beriladi.

Ishbilarmonlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- ishlab chiqarish imitasion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv material mazmunining izchilligi;
- o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyat tarkibiy qismalarini yaratish;

- o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- o'zinning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligi yigindisi;
- o'yinni olib boruvchi o'qituvchining talabalardan faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan talabalarining o'z xatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o'tishini ta'minlashi.

A.Tyukov fikricha, har qanday o'yin qay tarzda loyihalashtirilishidan qat'iy nazar ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- kasbiy doira imitasiyasini yaxlitligi. Bunda o'yin imitasiyasiga taalluqli bo'lgan tuzilma va jarayonlar asosiy vogelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo'lishi lozim;

- mustaqil tashkil etishga yo'nalgaligi;
- o'qitishning muammoliligi;
- metodologik, psixologik va texnik jihatdan ta'minlanganligi.

Tadqiqotchilar ishbilarmonlik va evristik o'yin turlarini quyidagicha izohlaydilar.

1. Mutaxassislar orasida o'z vazifalarini, dasturlar va rollarini taqsim qilish asosidagi ishbilarmonlik va evristik o'yinlar. Bunday mutaxassislar sirasiga quyidagilar kiradi:

- kelgusida ishslash kutilayotgan muassasada faol ijodiy ishlovchilarni va ularni ishlab chiqishda, aniqlash bilan band bo'lgan "vazifa tadqiqotchilar";

- ijodiy guruhdagagi barcha ishtirokchilarning faolligi sathida shu guruhning o'ziga xos katalizatorlik vazifasini bajaruvchi "faollashtiruvchilar";

- ilmiy muammoning yechimiga yordam beradigan yo'llar, va betakror fikrlar taklif qiluvchi "g'oyalalar ishlab chiquvchi" talabalar;

- g'oyalarning tugilishiga va ularning boshqa ijodiy guruh a'zolari tomonidan idrok qilinishiga yordam beradigan "rezonator" (tarqatuvchi), talabalar;

- muammoni yechishning eng maqbul (optimal) variantini qayta ishlab chiqish va topish bilan band bo'lgan "nazoratchi" talabalar.

Bunday o'yinlarni muayyan obyektda o'tkazish maqsadga muvofiqlikdir. Rahbarlar va o'qituvchilar oldindan rollarni belgilab qo'yadilar. Masalan, agar o'yin konstrukturlik buyrasining tuzilmasini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lsa, quyidagilar belgilanadi:

- "KB boshligi";
- "Bosh konstruktur";

- “Ixtirochi”;
- “Opponent”;
- “Konstruktur”;
- “Tekshiruvchi”;
- “Maslahatchi”;
- “Nazoratchi” va b.

Shundan so‘ng quyidagilar tuzib chiqiladi:

- har birining egallaydigan vazifalari va xatti-harakatlari bahosi bo‘yicha yo‘riqnomasi;
- o‘yin jarayonining asosiy davriyligi bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

O‘yin jarayonida tortishish, musobaqa (bahs-munozara yuritish), muhitini shakllantirishni ta’minlash zarur.

O‘yin o‘tkazish chog‘ida “buyurtmachi» rolini bajaruvchi rahbar u yoki bu tadbirdarning bajarilish sifatiga va bu tadbirdarda rol ijro etgan (qatnashgan, ishtirok etgan) talabalarga baho beradi.

Bunday o‘yinlarni tashkil etish bo‘lg‘usi mutaxassis qobiliyatini diagnostika qilishni taqozo qiladi. Shu maqsadda talabalarни rol ijro etishlarini almashtirib turish ham tavsiya etiladi.

2. Ijodiy faoliyatning biror bosqichida muayyan strategiya, taktika va metodlarni qo‘llash malakasini shakllantirishga qaratilgan ishbilarmonlik va rolli o‘yinlari.

Masalan, “Ilmiy-tadqiqot ishlarida ma’ruza, munozara» tarzidagi o‘yin.

Bu o‘yindagi asosiy rollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

“Boshlovchilar” - o‘qituvchi, ishlab chiqarish mutaxassis;

“Peshqadamlar” - muhokama qilinadigan muammoning muayyan masalasi bo‘yicha vaziyatni tasavvur qila oladigan ma’ruzachilar;

“Bezakchilar” - peshqadamlarning ma’ruzalari va chiqishlarini ko‘rgazmali tasavvur etishlari va tushuntirishlarini ta’minlovchi o‘yin ishtirokchilari.

“Assistentlar” peshqadamlar yordamchilari bo‘lib, ular peshqadamlarga va opponentlarga ko‘rgazmali chiqishlariga yordam beruvchi o‘yin ishtirokchilari.

“Rasmiy opponentlar” - peshqadamlarning maruzasi va boshqa materiallar bo‘yicha rasmiy tanqidiy ruhda chiqish qiluvchilar;

“Norasmiy opponentlar” - muammo bo‘yicha guruh bo‘lib yoki mustaqil ilmiy-tadqiqot olib boruvchi barcha boshqa talabalar - o‘yin ishtirokchilari;

“CHalg‘ituvchilar” - korxona yoki ilmiy muassasada qo‘srimcha salbiy hodisa, faktlarni bayon qilish asosida o‘yin ishtirokchilarining faolligiga sabab bo‘ladigan savollar qo‘yishi lozim bo‘lgan o‘yin ishtirokchilari. Korxona yoki ilmiy muassasa mutaxassislar, oliy o‘quv yurti o‘qituvchilari, ilmiy xodimlari, aspirant, talabalar bu «vazifa»ni bajarishlari mumkin.

“Registrarlar” - munozaralarni yozib oluvchi o‘yin ishtirokchilari;

“Ekspertlar” - ma’ruza muhokamasidagi chiqishlar va yechimning guruh bo‘lib qabul qilinishi bo‘yicha obyektiv baho beruvchi o‘yin ishtirokchilari. Bu vazifada korxona va ilmiy muassasa mutaxassislar, oliy o‘quv yurti o‘qituvchilari va ilmiy xodimlari, aspirant va talabalar qatnashishlari mumkin.

Bunday o‘yinlarda quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

- bo‘lgusi mutaxassisni axborotlar almashishga o‘rgatish;
- ularda o‘z nuqtai nazarlarini asoslash va himoya qilish, boshqa kishilarning g‘oyalariga kirib bora olish, guruh bo‘lib yechim qabul qila olish malakasini shakllantirish.

O‘yin bosqichlari. Birinchi bosqich tashkiliy bosqichdir. Unda raqobatga kirishuvchi jamoalar va ekspertlar guruhi shakllantiriladi. O‘qituvchi o‘yining maqsadi va qoidalarini bayon qilib beradi.

Ikkinci bosqich o‘yin jarayonidir. O‘yin davomida jamoalar tashabbusni qo‘lga olishlari mumkin va unda munozarani kutilmagan darajada yangi o‘ylash va topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Uchinchi bosqich o‘yinga yakun yasashdir. Bu bosqichda ekspertlarning har biriga o‘z mulohazalarini bildirish uchun imkoniyat beriladi, ular esa o‘z baholarining meyorlarini hamda bahs-munozara ishtirokchilarining chiqishlarini natijalarini asoslab beradilar.

Ekspertlar vazifikasi:

- jamoaning g‘alabasini asoslash;
- a) o‘yin ishtirokchilaridan eng xushmuomala;
- b) eng aqli;
- c) eng obro‘li;
- d) eng ijodkorlarini aniqlab beradi.

O‘yin yakunida o‘qituvchi o‘yinni tahlil qilib beradi va yakun yasaydi. Ayniqsa, o‘qituvchi o‘yining borishi, uning muvaffaqiyati va kamchiliklariga urg‘u berishi lozim. Shuningdek, istiqbolda e’tibor berilishi kerak bo‘lgan muvaffaqiyatli, munozarali, ijodiy vaziyatlarni farqlab berishi kerak.

## Nazorat savollari

1. O'quv muammosining muhim belgilarini sanab o'ting.
2. Muammoli o'qitishning tashkil etish shartlari qanday?
3. Muammoli tipdagi o'quv mashg'ulotlari haqida gapirib bering.
4. O'yinli o'qitish deganda nimani tushunasiz?
5. O'yin strukturasiga kiruvchi jarayonlar, o'yinlarga xos xususiyatlar, o'yin funksiyalari haqida ma'lumot bering?

## 2.6. Individual va tabaqalashtirilgan ta'limgan texnologiyasi

Dastur asosida ta'limgan berishdan maqsad ta'limgan jarayonining asosiy qonuniyatlariga tayanib ta'limgan berish va bu ishni boshqarish uchun eng qulay shart  
— sharoit yaratishdir.

Individual ta'limgan ta'limganning bu turigatalaba yoki ta'limgan oluvchi dasturlashtiriladi.

Ta'limgan dasturlashtirishda avvalo o'quvchilar mazkur temani o'rghanish natijasida qanday bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishlari kerakligini, mazkur tema materiallarini o'qib olish uchun o'quvchilar ilgari olgan bilimlari hamda hosil qilgan malaka va ko'nikmalaridan qaysi biri bevosita mazkur fanni va aralash boshqa fanlarni o'rghanish uchun zarur bo'lishini aniq belgilab olish nazarda tutiladi.

Mana shundan kelib chiqib, mavzu mazmuni qismlarga taqsimlanadi, bu qismlardan har biri o'qib olish va nazorat qilishni taqozo etadigan yangi materialning tugallangan bir bo'lagi hisoblanadi.

Bilim hosil qilish va malakalar tarkib toptirish jarayonini dasturlashtirishda o'quv materialini o'qib olish uchun o'quvchining qanday aqliy va jismoniy ishlar qilishi lozimligini belgilab olish nazarda tutiladi. Buni ishlab chiqarish ta'limga tadbiq etish — mehnat usullari, operatsiya va jarayonlar, mashqlarni bajarish metodikasi talablariga rivoja qilingan holda tanlangan va bajariladigan jarayonlar, shuningdek, o'z oldiga qo'yilgan savollarga javob topish, javoblarni ta'riflab berish uchun o'quvchi bajaradigan taqqoslash, analiz, turli hisoblash — o'chash singari bilim olish bilan bog'liq bo'lgan harakatlar yuqorida aytib o'tilgan aqliy va jismoniy harakatlar jumlasiga kiradi. Qo'yilgan masalalar o'rGANILAYOTGAN mehnat usullari, operatsiyalar va jarayonlarning taxminiy negizini o'quvchilar tomonidan faol ravishda va to'la o'qib olinishini ta'min etish kerak.

Har bir elementning uqib olinishi ustidan nazorat o'rnatish va bundan avvalgi elementni muvaffaqiyat bilan bilib olgandan keyingina

navbatdagi element ustida ishlashga kirishish — dastur asosida ta'limgan berishning eng zarur tarkibiy qismidir.

Inge Unt, A.S. Graniskaya, V.D. Shadrikov tadqiqotlarida individual o'qitish o'quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi.

Unda:

- pedagog faqat birgina talaba bilan o'zaro munosabatda bo'ladi;
- bir talaba faqat o'qitish vositalari (kitoblar, kompyuter va b.) bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

Individual o'qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va suratlari talabaning xususiyatlariga moslashtiriladi.

Shaxsiy yondoshish deganda:

- pedagogikaning tamoyili bo'lib, unga ko'ra pedagog o'quv — tarbiya ishlari jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holda ayrim talabalar bilan individual model bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lish hamda individual xususiyatlarga asoslanish;
- o'quv jarayonida talabalarning individual xususiyatini hisobga olish;
- barcha talabalarning rivojlanishigina emas, balki har bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik—pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi.

O'qitishni individuallashtirish;

- o'quv jarayonini tashkil etish bo'lib, unda o'qitish usullari, suratini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan bog'lanadi;
- individual yondashuvni ta'minlovchi turli o'quv-metodik, psixologik—pedagogik va tashkiliy-ma 'muriy tadbirlardir.

Shunday qilib, didaktika bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko'ra o'qitishni individuallashtirish o'quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi.

Batov tizimi. AQShda ishlab chiqilgan bu tizimda o'quv jarayoni ikki qismga bo'linadi:

Birinchi qism- dars davomida beriladigan ta'limgan.

Ikkinci qism- individual mashg'ulotlar.

Bunday mashg'ulotlar unga zaruriyat sezgan o'quvchilar bilan yoki me'yordan orqada qolmaslik, nisbatan rivojlangan qobiliyatlar bilan ajralib turganlar bilan bir qatorda bo'lishini ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Tramp rejasi - bu texnologiya AQShda juda mashhur. Bu o'qitish shakllarimng shunday tizimiki, unda katta auditoriyadagi mashg'ulotlar kichik guruhlardagi individual mashg'ulotlar bilan qo'shib olib boriladi.

Zamonaviy texnik vositalar yordamida 100-150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali o'qituvchilar, proffessorlar leksiya o'qiydilar. 10-15 kishidan iborat kichik guruhlar esa leksiya materiallarini muhokama qiladilar, babs yuritadilar.

Nazorat shakllari: tayanch konspekt bo'yicha yozma ish, mustaqil ishlar, baland ovozda so'rash, magnitafonda, juftlikda o'zaro nazorat, guruhdagi o'zaro nazorat, o'z-o'zini baholash.

#### Nazorat savollari:

1. O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi.
2. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi.
3. Differensiyalashgan ta'limning avfzalliklari.
4. Faol va rivojlantiruvchi ta'lim nima?

### 2.7. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari

Oliy ta'limda an'anaviy o'qitish texnologiyasi o'zining qator xususiyatlari ko'ra zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga tobora zid bo'lib bormoqda. Chunki, mazkur o'qitish texnologiyasida pedagogikaning talabaga munosabati avtoritar xarakterga ega, ya'ni ta'lim jarayonida u yagona sub'yekt sifatida namoyon bo'ladi, talabalar esa faqatgina ob'yekt vazifasini bajaradi, xolos. Boshqacha qilib aytganda avtoritar o'qitish texnologiyasida talabaning tashabbusi va mustaqilligi deyarli yo'qoladi, o'qitish majburiy yo'sinda amalga oshiriladi.

Hanuzgacha jahonda eng ko'p tarqalgan o'qitishning sinf-dars tizimida mashg'ulotlari asosiy birligi dars bo'lib, u bitta fanining bitta mavzusiga bag'ishlanadi va o'qituvchi tomonidan boshqariladi. O'qitish ommaviy tarzda olib borilishi tufayli talabalarning tashabbusi va mustaqilligi o'zidan-o'zi so'nib boraveradi.

Shu bois texnologiya asosan talabalarda bilim, ko'nikmalarni shakllantiradi, ular shaxsini rivojlantirishni ko'zda tutmaydi.

O'z-o'zidan ko'rindiki, an'anaviy o'qitish texnologiyasi o'z tabiatiga ko'ra ta'lim muassasalari oldiga jamiyatimiz tomonidan qo'yilgan talablarga butunlay javob bermaydi.

Butun ta'lim tizimi, shu jumladan o'qitish o'quvchi shaxsiga yo'nartirilgan bo'lishi lozim.

Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon - o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida amalgam oshirilishi lozim.

Shaxsga yo'nartirilgan texnologiyalar tamoyillari:

- insonparvarlik - o'quvchi shaxsini xurmat qilish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash;
- hamkorolik - pedagog va talabalar o'tasidagi munosabatda tenglik sheriklikning ustunligi;
- erkin tarbiyalash - shaxsga o'z faoliyatini tanlash erkinligini, mustaqilligini berish.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar pedagogik jarayon markaziga o'quvchi shaxsini qo'yadi, uning rivojlanishi uchun komfort sharoitlarni ta'minlaydi, uning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirishni amalgam oshiradi.

Ta'limning barcha tizimi va o'qitish jarayonining o'zi shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning asosiy tamoyillari:

- ✓ Gumanizm (shaxsga hurmat va muhabbat, unga yordam, uning ijodiy qobiliyatlariga ishonch, majburlashdan voz kyechish)
- ✓ Hamkorlik (demokratizm, tenglik, o'quvchi-pedagog munosabatlarida hamkorlik)

✓ Erkin tarbiya (tanlov va mustaqillikning erkinligi, ichki tuyg'udan natija olish)

✓ Shaxsga yangi yondashuv quyidagi pozitsiyalardan iborat:

✓ Shaxs pedagogik jarayonda ob'yekt emas balki sub'yektdir.

✓ Har bir o'quvchi qobiliyatlarga ega, ko'pchiligi esa talantlidir.

✓ Shaxsning ustuvorlik sifatlari bu yuksak etik qadriyatlaridir

(mehribonlik,

muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon).

✓ Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni ta'kidlaydi:

✓ O'quvchi va o'qituvchini huquqlarda tenglashtirish.

✓ Xato qilish xuquqi.

✓ O'z nuqtai nazarga ega bo'lish xuqiqi.

✓ O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidiga munosabatlarining stili: man etish emas, yo'naltirish; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majbur kilish emas, ishontirish; bo'yruqbozlik emas, tashkil etish; cheklash emas, erkin tanlovini taqdim etish.

Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni ta'kidlaydi:

1. O'quvchi va o'qituvchini huquqlarini tenlashtirish.
2. Xato qilish huquqi.
3. O'z nuqtai nazariga ega bo'lish huqiqi.
4. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidiga munosabatlarining shakli: man etish emas, yo'naltirish; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majbur qilish emas, ishontirish; bo'yruqbozlik emas, tashkil etish; cheklash emas, erkin tanlovuni taqdim etish.

Ixtiyoriy ta'lim quyidagilarni tavsiflaydi:

✓ Ishonchga asoslangan holda majbur etmay talab etish.

✓ O'quv materialiga qiziqishni uyg'otish, faol ijodiy fikrlashga o'rgatish.

✓ Mustakkilik va tashabbusga tayanish.

✓ Jamoa orqali bilvosita metod yordamida talablarni bajarilishini ta'minlaydi.

Kommunikatsiya sohasidagi texnikaviy taraqqiyot auditoriyalarni axborotni uzatish vositalari bilan jihozlashga imkon yaratdi. Kompyuterlarning vujudga kelishi didaktik jarayonni yopiq boshqarish imkoniyatlarini tug'dirsada, talabalarning individual qobiliyatlarini hisobga olmadi. Shaxsiy kompyuterlar texnikasining rivojlanishi psixologik-pedagogik bilimlar o'sishi bilan hamkorlikda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muammosini keltirib chiqarmoqda.

Akademik V.P. Bespalko tizim 8 - yakka tartibli bilish faoliyatini dasturli boshqarishga alohida urg'u berib uzlusiz ta'limi tiziminining barcha bo'g'inlarida rivojlanishning yangi bosqichini ifodalaydi va talabalarning sog'ligiga zarar yetkazmagan holda zaruriy mustbat siljishlarga olib keladi "deb ta'kidlaydi. O'zida aniq o'rnatilgan didaktik masalalar va pedagogik texnologiyalarni mujassamlashtirgan pedagogik tizim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, deb ta'riflanadi. Bu tizimdagи didaktik masalalarga qisqacha izoh beriladi. Hozirda mavjud yakkalashgan pedagogik tizimlar - umumiy o'rtा, o'rtа maxsus, kasbhunar, oliy ta'lim - shaxsni tarbiyalash, ta'lim berish va takomillashtirishning yagona tizimiga aylanishi kerak. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim barcha turdagи ta'limlarni yo'nalishlar bo'yicha integratsiyalashni taqoza etadi. Ta'limning birinchi bosqichidayoq (maktabgacha ta'lim) bolaning ehtimolli shaxsiy yo'nalishlari psixologik-pedagogik kuzatishlar yordamida aniqlanadi, ma'lum faoliyat turiga qobiliyatları, yangi iste'dod nishonalari belgilab olinadi. Bu tabaqalashtirish psixologik pedagogika sohasi bo'lib, afsuski, kam tadqiq qilingan va kam ishlangan. Shu bilan birgalikda hammaga yaxshi

ma'lumki, shaxsning maxsus iste'dod nishonalarni erta aniqlash va uni muntazam rivojlantirib borish vaqtı soati bilan o'z mevasini beradi - yangi g'oja va faoliyat metodlarini haqiqiy yaratuvchisi tarbiyalanadi.

Shaxsning rivojlanish dasturi aslida har bir insonga tug'ma holda beriladi, biroq uni amalga oshirish, afsuski, hozirgi ta'lim tizimida o'rganilmagan. Mana, nima uchun dunyoda qynalganlar va jinoyatchilar mavjud (V.P. Bespalko). Shu boisdan bolaning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga kirishishi uni ixtisosli kasbga tayyorlashning boshlanishi bo'lishi kerak va barcha o'quv dasturlari mazmuni ma'lum faoliyat turining ijodkorini tarbiyalash masalasiga bo'ysunishi kerak.

Tashxislanuvchan tarzda o'rnatilgan maqsadli pedagogik tizim ochiq bo'lishi kerak, ya'ni o'rganishning har qanday bosqichida talaba undan chiqib ketishi yoki qayta kirib kelishi mumkin. Bu esa aniqlangan maqsadga mos holda ta'lim mazmunini ilmiy asosda saralashga imkon beradi. Ta'lim mazmunini jamlashda talabalarni asossiz yuklab tashlash va o'qituvchi o'qitishda inqirozga xos hodisalarni yuzaga chiqaruvchi ixtiyorilikni aniq loyihalash, o'qish yillari bo'yicha taqsimlash va tizimlashga joy bo'shatib beradi. O'quv fanlari tizimi ortiqcha bo'lmasdan qat'iy uzyiylikka va belgilangan mahorat bosqichida o'zlashtirishga olib keladi.

#### Nazorat savollari:

1. Yo'naltirilgan axborotli jarayon nima?
2. Guruhli ta'lim haqida nimalarni bilasiz?
3. Repetitorlikda "kichik guruh"ning ahamiyati.
4. Yakka tartibli bilish nima?
5. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nimalarda ifodalanadi?
6. Shaxsning rivojlanish dasturi qanday?

#### 2.8. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi

Dastlab bunday texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashni rivojlangan mamlakatlar olimlari: Amerikalik professorlar: R.Slatin, R.Jonson, D.Jonsonlar (1990—1999 yillarda), Koliforniya universiteti professori J.Aronson (1978) qo'llagan bo'lsalar, Isroildagi Kuddus universiteti professori Sh. Sharap (1988) lar ushbu texnologiya bo'yicha anchagina yaxshi natijalarga erishgan.



Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas'uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunda xar bir mashg'ulot pedagog maqsadni aniq ko'ra bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to'g'ri belgilab olishi lozim:

- mashg'ulot jarayonidagi bilimlar mazmunining ilmiyligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, qiziqarliligi talabalarda ta'lim va tarbiyaviy tomongan o'r ganiladigan bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ularning bilimini kengaytirish yuksak xulqli bo'lish kabi ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Talabalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda, ma'lum maqsadga erishmoq uchun o'qituvchi talabalarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarur. O'qituvchi qanday qilib talabalarni o'zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishi xususida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz:

- hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo'lgan faoliyat talabalar uchun qiziqarli bo'lishi, talabalarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga to'g'ri kelishi lozim;

- talabalarni biror ishga jalb qilar ekan, o'qituvchi ularga pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri vazifa qo'yishi, yo'l yo'riq ko'rsatishi shart;

- talabalar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham ishtirokchi, ham maslaxatchi vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunda qo'llanilayotgan o'qitish texnologiyalaring eng samarali usullaridan biri hamkorlikda o'qitish texnologiyasidir. Haamkorlikda o'qitish texnologiyasining diqqat markazi asosida: o'qituvchi – talaba va talaba – talaba bilan hamkorlikda DTS, o'quv dasturi, o'quv rejasida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan mavzularni bir-biriga ko'mak bergen holda bajaradilar. Ayniqla, berilgan o'quv materiali talabalar tomonidan qayta ishlanib, o'zlashtiriladi. Har bir talabada mustaqil ishslash, mustaqil fikr yuritish, mavzuni loyihalash

bilan bilish faolligi oshib boradi. Talabalar bir-birlari bilan mavzu yuzasidan munozarada bo'lib, o'quv baxsini yuritadi. Eng muhim o'quvchi mavzuni taxlil qilishi davomida bekorchilikka barham beradi va o'quv jarayonining tinglovchisi emas, balki ishtirokchisiga aylanadi. Mavzuning yechimi hamkorlikda xal bo'ladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining bosh g'oyasi - o'quv topshiriqlarini nafaqat birqalikda bajarish, balki o'qituvchi - talaba, talaba – talaba bilan hamkorlikda ish bajarib, talabaning intellektual saloxiyati shakllanib borib, yaratuvchanlik, kashfiyotchilik qobiliyatlarini rivojlanib borishiga imkon beradi.

Dars jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi qo'llanilganda har bir talabaning aqliy mehnat asosida fikr yuritishida, shaxs sifatida bir-biri bilan ongli munosabatni tarbiyalaydi. Ularning kuchi va qobiliyatiga ishonchi ortadi. Har bir o'quvchining muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini tushunadi. Bu esa o'quvchilarning o'quv materialini yanada mukammal o'rganishlariga, talaba sabab bo'ladi. Talabalar bir-biriga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyuştirishib, mustaqil fikrlaydilar va o'z fikrini bemalol ifodalaydi.

O'qituvchi mashg'ulotda o'tadigan mavzuni hamkorlikda o'qitish asosida rejalashtirmoqchi bo'lsa albatta talabalar bilimini tekshirish uchun test topshiriqlarini tuzishlari kerak. Shuningdek, o'qituvchi bu metodni qo'llasa o'quvchilar orasida hamkorlik munosabatlarini rivojlantiruvchi yo'llanma va topshiriqlarni tayyorlashlari kerak.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining ham bir nechta metodlari mavjud. Ulardan biri "Guruxlarda o'qitish" metodidir.

Bunda o'quvchilar teng ikkiga bo'linadi. Har ikkala guruhda ham bir xil topshiriqni bajaradi. Guruhda a'zolari o'quv topshiriqlarni hamkorlikda bajarib, har bir talaba mavzudan o'rganishi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'rganishga e'tiborini qaratadi.

Bu metoda o'qitish talabalar orasida hamkorlik hissini uyg'otadi. Guruhda ishtirokchilari qo'lga kiritgan yutuqlaridan quvonadilar. Guruhda qatnashchilari o'zining guruhda ishtirokchilarini sidqidildan qo'llab quvvatlaydilar. Bir-biriga hamkorlik munosabati hissini tuyadilar. Har biri o'zining guruhga qancha foyda keltirganligini sezadilar. Natijada talaba ko'proq ilmiy izlanishlar qilishga, bilim olish yo'lida puxta izlanuvchan bo'lish kerakligini anglaydilar.

## Hamkorlikda ta'lim berish va uni amalga oshirish shartlari

7-jadval

Asosiy nazariy o'rni	Amalga oshirish sharti
<p>Shaxsga yo'naltirilgan g'oyalarni namoyon qiladi: (1) har bir ta'lim oluvchilar tomonidan BMK, ularning shaxsiy xususiyatlarining rivojanish darajasita muvofiq egallashi; (2) muloqot ko'nikmalarini shakllantirish: birga faoliyat olib borishni o'rgatish, ta'lim olish va yaratish, har doim bir-biriga yordamga kelishga tayyor bo'lish, omad quvonchi yoki muvaffaqiyatsizlik alamli bo'lish</p> <p>Topshiriqni nafaqat birqalikda bajarish emas, balki birqalikda o'rganish; musobaqa emas, balki hamkorlik qilish.</p> <p>Hamkorlikda ta'lim olishni tashkillashtirishning asosiy prinsiplari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>(1) bir topshiriq bir guruhgaga;</li> <li>(2) rag'batlantirish hamma uchun;</li> <li>(3) o'z omadi va boshqa guruh omadlari uchun har bir shaxsnинг masuliyati;</li> <li>(4) hamkorlik faoliyati;</li> <li>(5) muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar</li> </ul>	<p>Maqsadni belgilash jarayonida amalga oshiriladi. Mustaqil individual ish → guruhlarda hamkorlikdagi ish hamkorlikda ta'lim berishda bilish jarayonining dialektik o'zaro bog'liqligi shundan iborat.</p> <p>Ta'lim beruvchi vazifasini o'zgarishi: ta'lim oluvchilar bilan (ommaviy emas!) yangi o'zaro harakatga tayyorgarligi va qodirligi. (1) shaxsiy tenglik va hurmat, to'laqonli muloqot va o'zaro tushunishga o'tish, (2) ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'zaro harakatining yangi shakllari: ta'lim beruvchi → guruh → ta'lim oluvchilar, ta'lim oluvchilar → ta'lim oluvchilar</p> <p>(1) topshiriqni bajarish uchun guruhga bir topshiriq beriladi; (2,3) guruh hamma uchun yagona, hamkorlikdagi ish baholari jamlanishi, (umumiyligi natijaga erishish uchun guruhdagi barcha ta'lim oluvchilar harakati baholanadi), shuningdek har bir ishtirokchining shaxsiy qo'shgan hissasidan kelib chiqadigan bahoni oladi.</p> <p>(4) o'zaro harakatni tezlashtirish yo'llari, ya'ni guruhda baxs, hamkorlik, o'zaro yordam, hamkorlik faoliyat;</p> <p>(5) har bir ta'lim oluvchi shaxsiy muvaffaqiyatlarini takomillshatirishga, modomiki boshqalar bilan birga baho olsa,</p>

ta'lim olishda shaxsiy imkoniyatlari, yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
--

### Nazorat savollari:


1. Hamkorlikda o'qishning mazmun mohiyati nimadan iborat?
2. O'qituvchi qanday qilib o'quvchilarni o'zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishi kerak?
3. Hamkorlikda ta'lim berish va uni amalga oshirish shartlarini aytib bering.
4. Hamkorlikda o'qishni tashkil etishning tamoyillarini aytib bering.

### 2.9. O'qitishni jadallashtirish texnologiyasi

Mazkur texnologiya anchagina ommalashgan pedagogik yondashuv bo'lib, ko'rgazmali sxemalardan iborat tayanch signallar konseptlaridan tarkib topgan. Ularda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborot birliklari aks ettiriladi, ularning orasidagi turli aloqadorliklar ko'rsatiladi hamda abstrakt (mavxum) materialni oydinlashtiruvchi manbalar, misollar va tajribalarni eslatish uchun belgilar, simvollar, komponentlar va maqsadlarning ahamiyatliligi bo'yicha tasnifi turlicha bo'lgan shartli belgilardan foydalaniladi.

O'quv materialining sxemalar va shartli belgilardan iborat bo'lgan tayanch signallar konseptlaridan foydalanish asnosida turli va o'ziga xos usullar va metodik vositalar ham ishlataladi.

## MUAMMOLI SAVOLLAR



Sizningcha, faoliyk nima?



Siz o'qitayotgan ta'lim oluvchilar faol bo'lishni istaysizmi?



Sizningcha, ta'lim oluvchilar faoliyi va pedagogik jarayon tushunchalari o'rtaida qanday bog'liqlik mavjud?

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining faolligi tamoyili pedagogikada eng muhim tamoyillardan bo'lib kelgan. Uning mohiyati o'r ganilayotgan predmetni ta'lim oluvchilar tomonidan maqsadli va faol qabul qilinishi, anglanishi, qayta ishlani shi va qo'llanishidir. Ta'lim olishning faolligi ulardagi yuqori motivasiya, yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni ehtiyoj sifatida qabul qilinishi, ta'lim jarayonining natijalari samarali bo'lishi bilan sifatlanadi.

Ma'lumki, ta'lim oluvchilar har bir o'quv fani yoki biror fan doirasida o'r ganilayotgan mavzuga bir xilda yondashmaydilar. Bunga ularning munosabatini qaysi ko'rsatkichlar orqali aniqlash mumkin?

### Loyihalash usulini qo'llab o'qitish texnologiyasi

### O'qitishning informatsion va telekommunikatsion texnologiyasi

Pedagogik jarayon chizmasi asosida dars olib boriladi va texnologik xarta tuziladi. Uning maqsadi ta'lim oluvchining ijtimoiy madaniy muhitda loyi halash faoliyatiga faoli kirishishi uchun o'zingning mavjud bilimlarini faollash-turishga va yangi larini olishga yo'naltirilgan.

Bu kompyuterlar va tele-kommunikatsion vosital-ari yordamida axborot uzatish usullarining maj-mui, bilim-larni qayta ishslash va ulardan foyda-lanish. O'qitishdagi informatsion texnologiya darajasi ham dasturlar, ham apparatlar bilan ta'minlanganlik darajasi qarab baholanadi.

### Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimi

O'quv kursini yoki uning katta bo'limini mustaqil o'zlashtirishga imkon yaratadi. Bu tizim o'zida oddiy darslik, masalalar to'plami, laboratoriya mashg'ulotlari, ma-lumotnomalar va o'zlashtirilgan axborotni tekshiruvchi ekspert xususiyatlarini mujassamlan-tiradi:

- o'quv materialini o'r ganishning maqbul yolu ni ta'minlaydi;
- tahlil va tadqiqotchilik faoliyatini ko'nikmalarni singdiradi;
- ta'lim oluvchining vaquni tejashta imkon beradi.

### Dasturlashtirilgan o'qitish tizimi

Bu maxsus ishlab chiqilgan dasturlar asosida o'r ganuvchi qurilmalar (kompyuter trenajyor, dasturlanadigan darsliklar) yordamida mustaqil egallash imkonini ta'minlovchi texnologiyadir. O'qitish texnologiyasida quydagi dasturlar bo'lishi mumkin:

- chiziqli;
- tarmoqlangan;
- adaptiv;
- umumlashtirilgan;
- dastur-algoritnik;
- bloki o'qish;
- modulli o'qitish;
- bilimlarni to'liq o'zlashtirishga yordam beradi.

Ta'lim oluvchida quydagilar shakllangan bo'lsa uning o'qish faolligini yuqori deb baholash mumkin.

1. Ta'limiy vazifalarni bajarishga bo'lgan tayyorgarlik.
  2. Mustaqil faoliyat olib borishga intilish.
  3. Bajarilayotgan harakatlarni anglaganligi.
  4. Faoliik, mustahkamligi.
  5. O'z bilim darajasini yanada oshirishga bo'lgan intilish.
- G.K.Selevko faollikning ikki darajasi farqlanadi, deb ta'kidlaydi.

- birinchi, quyidagi daraja insonning ma'lum darajada mahsuldor, bajaruvchi, qayta tiklovchi faoliyatini belgilab, bunda inson ko'proq boshqarilayotgan obyekt rolini ijro etadi. Bu darajadagi faoliyat "obyekt faoliyi" deb nomlanadi.

- ikkińchi, yuqori darajada faollik ta'lif oluvchi faoliyatining birlamchi sababi, manbasi rolini o'ynab, ijodiy, o'zgartiruvchi sifatiga ega. Bunda faoliyatni amalga oshiruvchi inson subyektdir va faoliyatda uning irodasi ishtirok etadi ("subyekt faoliyati").

Bu texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lím oluvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalari rivojlantiriladi hamda samaradorlikka erishiladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. O'qitishni intensivlash texnologiyalari haqida nimalar bilasiz ?
  2. Ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtirish va intensifikasiyalashga asoslangan ta'lif texnologiyalarini izohlang.
  3. Ta'lif oluvchida nimalar shakllangan bo'lsa uning o'qish faolligini yuqori deb baholash mumkin ?
  4. G.K.Selevko o'z kitobidagi faollikning ikki darajasini aytib bering ?
  5. Qanday vaziyatlar mashg'ulotida eng yuqori faollashtiruvchi effekt beradi
  6. M.V.Bulonava -Toporkova, A.V.Duxavnevalarni faollikning qanday uch darajasini aniqlaganlar ?

## **2.10. O‘quv loyiha texnologivalari**

Loyiha –aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli. Loyiha dastur, model, texnologik xarita va b. ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g‘oya tashkil etadi. Loyihalash – boshlang‘ich ma‘lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalahtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat. Loyihalash “g‘oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish –bashoratlash – rejalahtirish” tizimiga asoslanadi. Löyihalash turli vositalar, ya’ni moddiy buyum, qurollar, m: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog‘ozi, chizg‘ich, qalam, marker, nusxa ko‘chirish apparati (printer) va b. yordamida amalga oshiriladi.

## Loyihani yaratish uchun pedagog:

- loyihani yaratish;
  - jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
  - maqsadni aniq belgilash;
  - maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
  - o‘quv materiali mazmunini shakllantirish;
  - savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
  - jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
  - talaba bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik

darajasini baholash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur. Ta'lism jarayonini loyihalash – alohida olingan ta'lism jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

Ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlar

- ✓ ta’lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta’minot)ning loyihsada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta’minlanadi;
  - ✓ ta’limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog’liq holda tanlanadi;
  - ✓ loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq. O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishning asosiy bosqichi – o'quv jarayonini loyhalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda

## **tashkil etiladi:**

1. Darsning maqsadi va natijasini belgilash.
  2. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
  3. Ta'lim resurslarini tanlash.
  4. O'qitish va o'qish strategiyasini belgilash.
  5. Dars turini tanlash.

## 6. Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

Shu sababli darsning maqsadi tashxisli ifodalanishi lozim. Ya'ni dars maqsadi aniq bo'lishi kerak. Dars maqsadining aniq bo'lishiga erishish uchun o'qituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

✓ darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lif maqsadiga erishishni to'la ta'minlay olishi;

✓ o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi to'g'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

Shunga ko'ra aytish mumkinki, ta'lif maqsadlari talabalarning harakatlarida ifodalanadigan ta'lif natijalari belgilanadi. Ta'lif texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va o'qish jarayoni, natija qo'yilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish –darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga ko'ra baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ta'lif resurslarini tanlash – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lif vositalarining o'rinni tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi. O'qituvchi, talaba va darsni tashkil etish uchun ta'lif vositalari sirasidan quyidagilar o'rinni oladi:

O'qitish va o'qish strategiyasi – belgilangan o'quv materiallarini talabalar ongiga yetkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lif metodi, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

### Ta'lif vositalari

- 1) darslik;
- 2) o'quv qo'llanma;
- 3) jadvallar;
- 4) tarqatma materiallar;
- 5) yo'l-yo'riqlar;
- 6) texnologik xaritalar;
- 7) tipik xatolar xaritasi;
- 8) topshiriqvaraqlari
- 1) o'quv-metodik qo'llanmalar;
- 2) metodik tavsiyalar;

3) metodik ishlanmalar;

4) o'quv dasturlari;

5) dars rejsi;

6) ma'ruza matni

1) plakatlar;

2) modellar;

3) maketlar;

4) jihozlar;

5) audiovizual vositalar;

6) texnik vositalar;

7) real vositalar

Darsning turini tanlash – o'qituvchining mahoratiga ko'ra darsning didaktik maqsadi, o'quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi. Darsning texnologik xaritasi – dars ishlamasining asosiy o'zagini tashkil etadi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Darsning texnologik xaritasi xususida ma'ruzaning keyingi o'rinnarida alohida to'xtalib o'tiladi. Ta'lif jarayonni loyihalash: loyiha mazmun – faoliyat uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiyo mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihami yaratishdir. Ta'lif jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kyechedi: Ta'lif jarayonini loyihalashda bajariladigan asosiy vazifalar quyidagilardir:

1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;

2) natijalarni oldindin ko'ra bilish;

3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish.

### Asosiy bosqichlar

1-bosqich: loyihami yaratish

2-bosqich: talabalar faoliyatini tashxislash

5-bosqich: talabalar faoliyatini nazorat qilish

3-bosqich: pedagogik jarayonni tashkil etish

4-bosqich: pedagogik jarayonning samarali kyechishini ta'minlash

### Ta'lif jarayonini loyihalash bosqichlari

#### Vazifalarning belgilanishi

1-qadam

2-qadam

3-qadam

Umumi pedagogik vazifalar (pedagogik jarayon xususiyatlarini yaxlit holda inobatga olish asosida belgilanuvchi) Bosqichli pedagogik

vazifalar (ma'lum bosqich xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanuvchi) Vaziyatli pedagogik vazifalar (muayyan vaziyatlarni inobatga olgan holda belgilanuvchi) Ta'lim jarayonni loyihalashda vazifalarning belgilanishi

Dars ishlanmasi – bu ta'limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi. Uni tuzishda o'qituvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmuni boyitish, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadi ko'zlanadi. Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo'llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Binobarin, ta'lim jarayoniga yangi DTS, o'quv dasturlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalarining qo'llanishi bilan dars ishlanmalariga qo'yilgan talablar ham o'zgarib boradi. Dars loyihasi (ishlanmasi)ni uchun tayyor, standart qolip mavjud emas. Chunki dars "jonli" tashkil etilishi zarur. Darsning bu xususiyatiga ko'ra uni hyech qanday qolipga solib bo'lmaydi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Ta'lim jarayonini loyihalash, odatda, texnologik pasport va texnologik xaritalar vositasida amalga oshiriladi. Texnologik pasport (pedagogikada) – ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat. OTMdagi o'quv mashg'ulotining texnologik pasporti

- ma'ruza mavzusi;
- ma'ruzaga ajratilgan vaqt;
- talabalar soni;
- o'quv mashg'ulotining shakli va turi;
- o'quv mashg'ulotining tuzilishi;
- o'quv mashg'ulotning maqsadi;
- pedagogik vazifalar;
- o'quv faoliyati natijalari;
- ta'lim metodlari;
- ta'limni tashkil etish shakli;
- didaktik vositalar;
- ta'limni tashkil etish sharoiti

Texnologik xarita (pedagogikada) – pedagogik (ta'lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat ko'rsatuvchi

pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat.

OTMdagi o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasilsh bosqichlari va vaqt. Faoliyat mazmuni:

1-bosqich. Boshlang'ich qism – o'quv mashg'ulotining tashkiliytayyorgarlik bosqichi (15 daqiqa)

2-bosqich. Asosiy qism – bilimlarni mustahkamlash bosqichi (55 daqiqa) 3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa) Ta'lim jarayonni loyihalashda odatda modellashtirishdan ham foydalaniadi. Model – real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi. Modellashtirish hodisa, jarayon yoki tizimning umumiyligi mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish. O'quv jarayonida quyidagi turdag'i modellar qo'llaniladi:

1.O'quv modellari (ta'lim jarayonida qo'llaniladi; ko'rsatmali qurollar, ko'rgazmali vositalar, trenajyorlar, ta'limiy dasturlar).

2.Tajriba modellari (ilmiy, amaliy tajribalarni olib berishda qo'llaniladi; loyihalashtirilayotgan ob'ektning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi).

3.Ilmiy-texnik modellar (jarayon va hodisalarini tadqiq etishda qo'llaniladi; qurilma, moslama, asbob, jihoz va mexanizmlar).

4.O'yin modellari (turli vaziyatlarda ob'ekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali ko'nikma, malakalarni hosil qilish maqsadida qo'llaniladi; kompyuter, sport, iqtisodiy, harbiy, ishchanlik o'yinlari va b.).

5.Imitatcion modellar (real voqeqlikni u yoki bu darajada shunchaki aniq aks ettirish uchun emas, balki aynan unga o'xshatish maqsadida qo'llaniladi; amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli trenajyorlar, mexanizmlar).

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o'quv loyihalarining tayyorlanishiga e'tibor qaratilmoqda.

#### «SINKVEYN»

1-satr	1 ta so'z – ot- assotsiatsiya
2-satr	2 ta so'z – fe'llar
3-satr	3 ta so'z - sifatlar
4-satr	4 ta suz – gap yoki mantiqiy ibora
5-satr	1 ta so'z – ot-umumlashtirish

O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:

- 1) O'qitish texnologiyasining mohiyati va mazmuni ochib berish;
- 2) Ta'lif vositalarining rivojlanish istiqbollarini ketma-ketlikda modellashtirish;
- 3) Kompyuterli o'qitish texnologiyasi o'rganish, tahlil etish va klassifikatsiyasini tayyorlash.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun talabalar oldindan quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

Talaba quyidagilarni bilishi kerak:

Kompyuterli o'qitish texnologiyasining mohiyati va mazmuni, elektron darslik kompyuterli o'qitish texnologiyasidan asosiy didaktik vositasi sifatida, elektron darsliklarnig asosiy xossalari va kategoriyalari, elektron darslikka qo'yiladigan talablarni o'rganish.

Talaba quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:

- tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish, abstraktlashtirish, loyihalash, modellashtirish.

Talaba quyidagi malakalarga ega bo'lishi kerak:

- individual va hamkorlikda ishlash, kognitiv, evristik, kreativ faoliyat malakalari.

Ushbu keysning asosiy manbai kabinetli, lavhali bo'lib, aniq topshiriqlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy ob'yekti Kompyuterli o'qitish texnologiyasining mohiyati va mazmuni, elektron darslik kompyuterli o'qitish texnologiyasidan asosiy didaktik vosita sifatida, elektron darsliklarnig asosiy xossalari va kategoriyalari, elektron darslikka qo'yiladigan talablarni o'rganishga yo'naltirilgan. Bu tashkiliy keys bo'lib, ma'lumotlar topshiriqlar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan. Mavzu yuzasidan ko'nikma va malakalarni egallahsga yo'naltirilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilish, ularni hal etish, tahlil etish va yangi modelni ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish texnologiyasini yaratish va baholashga yo'naltirilgan. Ushbu keysdan "Ta'lif texnologiyalari", "Kasb ta'limi metodikasi" va "Kasbiy pedagogika" fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Tavsiya etilayotgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:

- 1) o'qitish texnologiyasining mohiyati va mazmuni ochib berish haqidagi bilimlarni mustahkamlash;
- 2) topshiriqlarni hal etish orqali modellarni o'zlashtirish;

3) mustaqil ravishda kompyuterli o'qitish texnologiyasini o'rganish, tahlil etish va modellashtirish ko'nikmasini egallah.

Nazorat savodlari:

1. Ta'lif vositalari deb nimaga aytildi ?
2. Ta'lif vositalarining nyecha turi mavjud va ularga izox bering ?
3. Ko'rgazmali materiallar, jixozlarning asosiy turlarini sanab bering
4. Mahsus oq taxta (doska), magnit doskalarga ta'rif bering.
5. Yassi ekranli proyektorlar, video tasvir materiallarini aytib bering.
6. Masofaviy ta'limga qanday tashkil qilishdan.
7. Masofaviy ta'limga qanday tashkil etishda tahliliy yondashuv.
8. "Masofaviy ta'lif" tushunchasi fanga nyechanchi yil kirib kelgan

## 3-BOB. ELEKTRON AXBOROT TA'LIM MUHITIDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

### 3.1. Dasturlashtirilgan ta'limga

Dasturlashtirilgan o'qitish XX asning 50-yillari boshida paydo bo'ldi. U amerikalik psixolog B.Skinner nomi bilan bog'liq. U materiallarning o'zlashtirilishini boshqarishning samaradorligini oshirishda, axborotlarni qismma-qism uzatishning muntazam programmasi asosiga qurish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi.

N.Krauder tarmoqlangan dasturni ishlab chiqdi, unda nazorat natijalariga ko'ra ta'limga oluvchilarga mustaqil ishlar uchun turli xildagi materiallar tavsiya etiladi.

G.K.Selevko dasturlashtirilgan o'qitishga quyidagi ta'rifni beradi, ya'ni dasturlashtirilgan o'qitish deganda o'qitish uskunalari (EHM, programmalashtirilgan darslik, kinotrenajer va b.) yordamida programmalashtirilgan o'quv materialining o'zlashtirilishini boshqarishni tushunadi. Dasturlashtirilgan o'quv materiali muayyan mantiqiy izchillikda beriladigan nisbatan katta bo'limagan o'quv axborotlari ("kadrlar", "fayllar", "odimlar") seriyasidan iborat bo'ladi.

V.P.Bespalko bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish namunasidagi pedagogik texnologiya tasnifini tavsiya etdi. U o'qituvchi va ta'limga oluvchi (boshqariluvchi) munosabatlarni quyidagicha belgilaydi:

✓ berk - (o'quvchilarning nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati);

✓ davriy (nazorat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat);

✓ tarqoq - (frontal) yoki yo'nalganlik (individuallik);

✓ goh (og'zaki) yoki avtomatlar (o'quv vositalari) orqali. V. P. Bespalko texnologiyasi turlari:

- klassik leksiya metodida o'qitish (boshqaruv-berk, tarqoq, qo'lida);
- audiovizual texnik vositalarda o'qitish (berk, tarqoq, avtomatlashtirilgan);

- "Konsultant (maslahatchilar)" tizimi (berk, yo'naltirilgan, qo'lida);

- o'quv adabiyotlari yordamida o'qitish (berk, yo'naltirilgan, avtomatlashtirilgan) - mustaqil ish;

- "Kichik guruuhlar" tizimi (davriy, tarqoq, qo'lida) — guruhlardagi o'qitishning tabaqlashtirilgan usuli;

- kompyuter o'qitishlari (davriy, tarqoq, avtomatlashtirilgan);

• "Repetitor" tizimi (davriy, yo'naltirilgan, qo'lida) — individual o'qitish;

• dasturlashtirilgan o'qitish (davriy, yo'naltirilgan, avtomatlashtirilgan), ular uchun oldindan programmalar tuzib qo'yiladi.

Dasturlashtirilgan o'qitishning beshta asosiy tamoyili farqlanadi:

1. Boshqarish qurilmalarining muayyan bosqichliligi (ierarxiya tamoyili). Bu programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasining ierarxiya tuzilmasida avvalambor pedagog turadi, va bu fanda dastlabki umumiy mo'ljal hisoblanadi; o'qitishning murakkab nostandard vaziyatlarida individual yordam va korreksiya o'rinni oladi.

2. Qayta aloqa tamoyili. U o'quv faoliyatining har bir tadbiri bo'yicha o'quv jarayonini boshqarishning davriy tashkil etish tizimini talab qiladi. Bunda avvalo to'g'ri aloqa o'rnatiladi — zaruriy harakat obrazi to'g'risidagi axborot boshqaruvchi obyektdan boshqariluvchiga uzatiladi. Qayta aloqa, V.P. Bespalko ta'kidlashicha, pedagog uchungina emas, balki ta'limga oluvchiga ham zarur birinchisiga korreksiya uchun, ikkinchisiga esa o'quv materialini tushunish uchun.

Ichki va tashqi qayta aloqa ham mavjud. Ichki qayta aloqa ta'limga oluvchilarning o'z natijalarini va o'zining aqliy faoliyati xarakterini mustaqil korreksiya qilish uchun xizmat qiladi.

Tashqi qayta aloqa ta'limga oluvchiga bevosita o'quv jarayonini boshqaruvchi qurilmalar vositasida yoki pedagog tomonidan ta'sir etishda amalgalashuvchi oshiriladi.

3. O'quv materialini yoritish va uzatishda amalgalashuvchi oshiriladigan odimlovchi texnologik jarayon tamoyili. Odimlovchi o'quv tadbiri — bu texnologik usul bo'lib, unda o'quv materiali programmada axborot bo'laklari va o'quv vazifalari (bilim va malakalarni samarali o'zlashtirishni ta'minlashga xizmat qiladigan va ta'limga oluvchining bilimlarni o'zlashtirishning muayyan nazariyasini aks ettirgan)ning kengligi bo'yicha alohida, mustaqil, lekin o'zaro bog'langan va optimal bo'lgan qismlardan iboratdir.

To'g'ridan-to'g'ri va qayta aloqa uchun zarur bo'lgan axborotlar to'plami, bilish harakatlari va qoidalarining ta'limiylarini odimini hosil qiladi. Bu odim tarkibiga uch o'zaro aloqador kadr (zveno) qo'shiladi: axborot, qayta aloqa tadbiri va nazorat. Odimlovchi o'quv tadbirlari izchilligi programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi asosini tashkil etuvchi ta'limiylarini hosil qiladi.

4. O'qitishda individual namuna va boshqarish tamoyili davom ettiriladi. Bu tamoyil ta'limga oluvchining har biriga shunday axborot

jarayonini yo'naltiradi va tavsiya etadiki, u ta'lim oluvchiga mashq jarayonida, tezlikda oldinga siljishga imkoniyat beradi, chunki uning bilish kuchi unga muvofiq ravishda boshqaruvchi tomonidan uzatilgan axborotga, moslashishga qulay bo'ladi.

5. Programmalashtirilgan o'quv materialini uzatish uchun maxsus texnik vositalardan foydalanish tamoyili.

Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasini ilmiy asoslash bir qator ta'limiy programmalarini farqlash imkoniyatini beradi:

- rayon programmalar;
- tarmoqlanuvchi programmalar;
- soddalashtirilgan programmalar;
- aralash programmalar;
- algoritm;
- blokli o'qitish;
- modulli o'qitish;
- bilimlarni to'la o'zlashtirish;

Ravon programmalar - bu nazorat topshiriqlari va o'quv axborotlarining almashinib turuvchi u qadar katta bo'limgan bloklari ketma-ketligidir.

Ravon programmada ta'lim oluvchi to'g'ri javob berishi shart. Ba'zan ehtimol deb topilgan javoblardan birini shunchaki tanlaydi. To'g'ri topilgan javobda u yangi o'quv axborotiga ega bo'ladi. Agar javob to'g'ri chiqmasa, axborotni qaytadan o'rganishga tavsiya etiladi.

Tarmoqlanuvchi programma. Ta'lim oluvchi noto'g'ri javob berganda, unga qo'shimcha o'quv axboroti beriladi va u ta'lim oluvchiga nazorat topshiriqlarini bajarish, to'g'ri javob qaytarish va o'quv axborotlarining yangi bo'laklarini olish imkoniyatini beradi.

Soddalashtirilgan programma. U ta'lim oluvchiga yangi o'quv materialini murakkablik darajasiga qarab tanlab olish, uni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda o'zgartirish, oddiy ma'lumotnoma, lug'at va qo'llanmalardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Aralash programma. U ravon, tarmoqlanuvchi, soddalashtirilgan programma bo'laklarini o'zida qamrab oladi.

Algoritm. U aqliy va amaliy tadbirlar izchilligini belgilovchi tafsilotdir. U o'qitishning mustaqil vositasi hamda ta'limiy programmlarning qismi bo'lishi ham mumkin.

Blokli o'qitish. Bu moslashuvchan programma asosida o'quvchilarning turli-tuman intellektual tadbirlar va egallagan bilimlaridan o'quv vazifalarini yechishda foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Quyidagi izchil bloklar farqlanadi:

- axborot bloki;
- test-axborot (o'zlashtirishni tekshirish);
- korreksion-axborot (noto'g'ri javob qaytarilganda qo'shimcha o'qitish);
- muammoli blok: olingen bilimlar asosida vazifalarni yechish;
- tekshirish va korreksiya bloki.

Modulli o'qitish. U modular bo'yicha tuzilgan o'quv programmalarini asosida o'qitishni tashkil etishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi: to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Programma materiallari bir vaqtning o'zida barcha ehtimol ko'rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so'z bilan berilishi mumkin.

O'qitish moduli o'quv materialining avtonom (mustaqil) qismi bo'lib, quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- aniq ifodaga ega bo'lgan o'quv maqsadi (maqsadli programma);
- axborotlar banki: o'qitish programmasi shaklidagi ayni o'quv materiali;
- maqsadlarga erishish bo'yicha metodik qo'llanma;
- zaruriy malakalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar;
- qo'yilgan modul maqsadiga qatiy muvofiq keluvchi nazorat ishi. Bilimlarni to'la o'zlashtirish texnologiyasi.

O'quv materiallari bir necha bo'laklariga bo'linadi: o'zlashtirilishi tegishli bo'lgan o'quv unsurlari, undan so'ng bo'limlar bo'yicha tekshirish uchun materiallarni ishlab chiqiladi, undan so'ng o'qitish, tekshirish — joriy nazorat, korrektirovka va qayta, o'zgartirilgan tarzda ishlab chiqish - o'qitish.

O'qitish vositalari didaktikaning kategoriyasi sifatida.

O'qitish vositalari bu moddiy va tevarak-atroflar, tabiiy obyektlar, bundan tashqari inson tomonidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda axborot olib yuruvchi pedagog va o'qituvchilar faoliyatida o'z oldiga qo'ygan tarbiyalash va rivojlanish uchun qo'llaniladigan qurol sifatida sun'iy obyektlardir.

O'qitish vositalari, shu bilan birga uning mazmuni, uslublari, tashkiliy shakllari o'qitish tizimini loyihalashtirilgan tarbiyaviy jarayonning tarkibiy bo'limlaridan biridir. Didaktik nuqtai nazarga S.G.Shapovalenko taklif qilayotgan atrof muhitni tafsiflashga bag'ishlangan o'quv vositalarini tasniflash biz uchun eng asoslangan deb tan olamiz.

1. Tabiiy obyektlar - izlanish va o'rganish uchun haqiqiy real, narsalarni o'z ichiga oladi: moddalarning namunalari va kolleksiyalarini, xom - ashyo, asboblar, detallar, o'simliklar, gerbariyalar, hayvonlar va ularning qotirib qo'yilgan holati, mikropreparatlar, reaktivlar va hokazolar. O'qitish vositalarining bu guruhiga yana mahsus ishlov berilgan moslamalar va ularning mexanizmlari kiradi. Bundan tashkari, kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun ishlab chiqarish moslamalar ham kiradi.

2. Moddiy obyektlarni (xaqiqiyalarini) tasvirlash va aks ettirishga kiradigan guruhnini quyidagilar tashkil etadi: modellar, mulyajlar, maketlar, jadvallar, ko'rgazmali qurollar (rasmlar, foto-aksli chizmalar, portretlar) ekran - tovushli vositalar (diafilmlar diopazitiv seriallari, slaydalar) kinofilmlar, video va tovush yozuvlari, plastinkalar, radio eshitirishlar va teleko'rsatuvlar.

O'z navbatida har bir guruh aniq assolarga qarab klassifikatsiya qilinishi mumkin. Masalan: modellar

a) orginalni almashtirish usuli bo'yicha - moddiy va ideal (o'ylash, belgilash; ramziy);

b) obyektivning ichki tashkillashtirish strukturali, funksional va aralash;


v) bu yo'nalishda (namoyish qilish, tarqatma);

g) predmetni aks ettirish bilan (harakatli, harakatsiz tekis, hajmli, aralash);

d) shartli bilan predmet va hodisalarni taqdim etuvchi o'qish vositalari (so'zlar, belgililar, grafiklar) o'z ichiga matnli jadvallarni, sxemalarni, grafiklarni, diagrammalarni rejalar, xaritalar, o'quv kitoblarni: darslik va o'quv qo'llanmalar, masalalar to'plami, mustaqil ishlar uchun qo'llanmalar, didaktik materiallar va boshqalarlarni oladi.

Alohiba guruhga o'qitish texnik vositalari kiradi. Bunday o'qitish vositalariga o'quv ma'lumotlari yetkazib beruvchi, uni ifodadash uchun maxsus texnik moslamalar talab qilinadi. Bu moslamalar transportyorlar, diafilm va kinofilmlar, videofilmlar, tovush yozish kompyuter dasturlari va boshqalardai iborat.

Texnik vositalar guruhiga turli xil proyekcion va tovushni qayta chiqarish apparatlari kiradi (kinoprojektlar, diaprojektlar, trafoprojektlar, magnitafon va videomagnitafonlar, trenajerlar, universal texnik vositalar, lingafon moslamalar, elektron hisoblash texnikasi, agar u biror bir kompyuter programmasini funksiyasini bajarsa bu hodisa to'ma'noda o'qitish vositasi deb ataladi.



Turli xil axborot muhitlarni, masalan telekommunikatsiyalarni alohida ajratib chiqarish kerak (elektron pochta, elektron konferensiya, axborot resurslari multimedia tizimi), bular tom ma'noda o'qitish vositalari emas, lekin o'ziga xos bo'lgan muhitni yaratadilar. Bu muhitni aniq texnologiyalar qo'llanilgan holda ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish va bilish jarayoni bo'lib o'tadi. Bunday klassifikatsiya rivojlanish faktorlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan, shuning uchun o'qitish vositalarining yangi turlari paydo bo'lganda ularning klassifikatsion belgilarini aniqlashga imkon beradi. Shunday qilib berilgan klassifikatsiya ancha keyin paydo bo'lgan o'qitish vositalari: video yozuv, EXT vositalari, o'xshatib taqlid qilish trenajerlari va boshqalar berilgan klassifikatsiyada o'z o'rnnini topdi.

O'qitish vositalarini shakllantirish tizimi nafakat o'qitish vositalarini turli xil belgilardan aniqlab klassifikatsiya qilish emas, balki ularni funksiyalar va xususiyatlari haqida bilimlarini taxmin qiladi.

Didaktik xususiyatlar haqida bilmajarni taxmin qiladi. Didaktik xususiyatlar - belgilar, boshqalardan o'qitish vositalarini farq qiluvchi tomonlari, didaktik funksiyalarni namoyon qilayotgan xususiyatlari faqat o'qitish vositalariga xos bo'lган potensial imkoniyatlarni aks ettiradi.

Didaktik imkoniyatlar o'quv - tarbiyaviy jarayonda qo'llaniladigan vosita sifatida ko'rildi va didaktik xususiyat bilan didaktik funksiya o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

“Didaktik xususiyat” va “Didaktik imkoniyat” tushunchalarining yaqinligi sababli pedagogik adabiyotda ularni hech ajratmaydilar.

O'qitish vositalarining didaktik funksiyalari qanchalik turli bo'lishiga qaramasdan ular hammasi umumiy funksiyaga ega; xususan:

➤ o quv axborotni qabul qilishda tushunib yetishi va idrokini ta'minlovchi ko'rgazmalilik, tushuncha va tasavvurni shakllantirish;  
➤ axborot, chunki o'qitish vositalari bilimning bevosita manbasidir.

➤ o'qitish jarayonini yengillashtiruvchi, maqsadga ega kuch, vaqt va

sog'lik sarflab erishishga yordam beruvchi, namoyishlarini, mustaqil shlarni tashkil kiluvchi funksiya;

► adaptivlik, o'qitish jarayoni bo'lib o'qitishga moyillikni a'minlashga yo'naltirilgan, namoyish va mustaqil ishlarni ashkillashtirish, ta'lim oluvchilarni yoshlariga xos bo'lgan ususiyatlarini mazmun bilan mutanosibligini ta'minlash, bilimini etma-ketligini ta'minlash;

► integrativlik, ... obyekt yoki hodisani bir bo'lak yoki ayrim qismalar sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu funksiya o'qitish vositalarini kompleks foydalanishda amalga oishriladi, bundan tashqari yangi axborot texnologiyalari vositalarini qo'llashga ishlataladi.

Umumiy funksiyaga bundan tashqari aniq turlarining faoliyatini harakatini, operasiyalar va qo'yilgan uslubiy maqsadlarga erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan instrumental funksiyalar kiradi. O'quv vositalarining hamma funksiyalari bir-biri bilan bog'lik va o'quv tarbiya jarayoniga o'zining har tomonlama ta'sirini o'tkazadi.

Hozirgi zamон о'кув vositalarining tavsifnomasi.

Yuqorida biz o'qitish vositalarining umumdidaktik nuqtai nazaridan klassifikatsiya qilinishini ko'rsatdik va atigi bittagina, lekin eng muhim belgisidan atrof-muhitning predmetlarini aks ettirish usulidan ularning (o'qitish vositalarining) umumdidaktik funksiyalarini ham ko'rsatdik endi esa biz ajritib ko'rsatgan o'qitish vositalarining guruhlarini tavsifnomasiga o'tamiz.

Natural (tabiiy) obyektlar. Tabiiy obyektlarga odatda jonli va jonsiz tabiatning obyektlari kiradi, ular bilan ta'lim oluvchilar mashg'ulotlarda tarqatma yoki namoyish qilinadigan materiallar shaklda tanishadilar. Ko'rgazmachilik - tabiiy obyektlarining tanlab olishdagi yoki tabiiy obyektlarni o'z ichiga tarkibiy qism qilib kiritilgan turli xil qo'llanmalarni loyihalashtirishdagi asosiy talablardan biri.

Shu maqsadda o'rganilayotgan tushunchalarning mazmunini ochib berishga kerak bo'lgan ayrim tipik belgilarni aniq ifodalashga yordam beradigan obyektlarni ajratib olinadi. Natural obyektlarni qo'lyozmaligini kuchaytirish uchun turli xil kodlash usullari qo'llaniladi: rangli, raqamli, harfli. Tabiiy obyektlarining o'qitilish jarayonida ular bilan ishlash uslublaridan asosiyalarini tuzatish va tajriba o'tkazish. Ko'rgazmali qo'llanmalar sifatida ishlatiladigan tabiiy obyektlar avvalo uning jihozlari va moslamalarini, maxsus tayyorlash va ishlov berish zarur: ularni kesish, ayrim belgilarga maxsus rang berish qopqoqlarni qobig'ida ko'rish tuynuklarni kesib ochish, ichki bo'yliklarni yoritish, lampa signal beruvchi o'rnatish va hokazo.

O'quv modellar, mulyajlar.maketlar. Modellar sun'iy jadval  
tabiiy obyektlarni ko'rinishi ularning muhim sifatlarini aloqalarini va  
munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar  
deb qabul qilishadi. Bu holda originalning xususiyatlarini (mikro va  
makro obyektlarning) ko'rsatishda shartlilik (ramziylik) yo'l qo'yiladi,  
razmerni kattalashtirish yoki kengaytirish obyekt qurilmasini sxema

yordamida ko'rsatish. Modellarning eng keng tarqalgan va tipik turlari bu moddiy (predmet) modellaridir. Modellar hajmga ega va tekis modellarga bo'linadi. Ularning oralig'ida relyef jadvallar joylashgan. Hajmga ega modellar tarkibiy qismlarga bo'linishi mumkin, qismlarga bo'linmaydigan, qimirlamaydigan, (belgilash komplekti) va harakatlanuvchi (ichki yonish dvigatelining modeli, nasos) bo'ladilar. Hajmga ega bo'lган modellar mulyajlar va maketlar kiradi. Ular ham umumta'lim ham texnika fanlarida qo'llaniladi. Mulyajlar (maketlar) biz shunday obyektlarni aytamizki, ular moddiy obyektlarning aynan o'xshatib yaratilgan qo'llanmalardir.

Mulyaj va maketlar predmetlarning tashki belgi va xususiyatlarini va atrof muhit xodisalarining o'rganishda qo'llaniladi, modellar o'rganilayotgan obyektlarning ichki qurilmasi va harakatlanish tamoyili mashina va mexanizmlarning kinematikasining o'rganilayotgan hodisalarda o'rın olgan boshqa aloqalar va munosabatlар imkoniyatini beradi.

Talim oluvchilarga taqdim etish usullari bo'yicha modellar mulyajlar (maketlar) xuddi tabiiy obyektlar singari demanstratsion va tarqatniaga bo'linadi. Turli xil modellarni loyihalashtirishda bu turdag'i o'qitish vositalarining funksiyalari va didaktik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda umumiy pedagogik-ergonomik talablarni hisobga olish kerak: axborotlashgan, o'quv jadvali faoliyatning aniq usullariga adaktivlik (o'rganish qabul qilish), (plakat, sxema, diagramma, grafik va boshqalar) aniq bir tushuncha, ko'nikma va bilimlarni shakllantirishda qo'llaniladigan tekis moddiy o'qitish vositasidir. O'quv jadvali aniq va ko'rgazmali holda o'rganilayotgan obyekt haqida ilmiy axborotni beradi. Jadvallar turli xil bo'ladi. Kompozitsion - rasmlar, fotosuratlar; Grafikli: chizmalar, diagramma, sxemalar va boshqalar; Belgili - ramziy, formulalar, harflar, so'zlar bilan ifodalananadi. So'nggi paytda elektronlashgan jadvallar qo'llaniladi - stendlar, bularga ayniqsa xavfsizlikka oid texnikalar kiradi.

O'qitish vositalarida ohirgi paytda eng ko'p qo'llaniladigan jadvallar - bu plakatlardir. Plakatlar - qo'yidagi talablarga javob berishi shart.

- ✓ plakatning mazmuni o'rganilayotgan mavzuga oid bo'lishi;
- ✓ plakatdagi chizma yetarli darajada katta va uzoqdan ham ko'rinishi kerak;
- ✓ plakatdagi obyektlar o'zlarining tabiiy holatlarida ko'rsatilishi shart;

✓ plakatdagi chizmalarining qismlardan masshtab mutanosibligini saqlab qolishi shart;

✓ eng e'tiborga loyiq qismlarni alohida (boshqa) rang bilan bo'yab ajratish lozim.

Ecran va ekran - tovush vositalari.

Hozirgi zamonda juda keng tarqalgan o'qitish vositalaridir. Bu o'qitish vositalariga qo'yilgan talablar eng avvalo ularning mavzuga oidligi, ikkinchidan bu o'qitish vositalarining sifati yaxshi bo'lishi kerak.

Diapositiv - (slayd) bu harakatlanmaydigan o'qitish ekran vositasi. Diapositivdagi chizmalar va rasmlar odatda plakatdagidan yaxshi qabul qilinadi.

Diapositiv - bu juda qulay o'qitish vositasi, chunki o'qituvchi uning bir qismini, yoki bir kadrni alohida ko'rsatishi mumkin. Har bir kadr to'liq bir informatsiyaga ega. Diafilm ham harakatlanmaydigan ekran o'qitish vositasidir. Bu qo'llanmalarning ko'rsatuva materiallari uslubiy g'oya mualliflarining kadrlarning ketma-ketligini taminlashidadir. Kadrlarning ketma-ketligi o'zgarsa informatsiyani qabul qilinishidagi mazmun buzilishiga olib keladi. Diafilmlarni qo'llashdagi qiyinchilik - ularda informatsiyaning ko'pligi va shuning uchun vaqt yetmasligi.

Bu qiyinchilikni diafilmlarning darsda ayrim fragmentlarini (bo'laklarini) ko'rsatish bilan yengilashadi.

Transporantlar - bu ham harakatlanmaydigan ekran qo'llanmasi.

Transparantlar grafproyektor yordamida ko'rsatilishi va xonani qorong'ilatish shart emasligi bu o'qitish vositasining katta yutug'idir. Transporantlar sind doskasini o'rnini bosadigan vositadir. O'qituvchi ta'lim oluvchilarga yuzlangan holda, o'tilgan yozuvlar yoki chizimalarni ekranga proyeksiya qilib tushuntirishi mumkin. Shu orada o'qituvchi chizmalarga kerakli bo'lgan o'zgartirishlar yoki to'ldirishlar kiritishi mumkin. Bundan tashqari informatsiyani taqdim etishda bir kadrni ikkinchisiga qo'yish transporantlarda juda qulaydir. Transparantlar odatda 6-8 kadr dan iborat seriyalarga bo'lib chiqiladi yoki o'qituvchi tomonidan yasalishi ham mumkin.

O'quv binosi yaqindagina eng yaxshi o'qitish vositasi deb qabul qilingandi. Uning ko'rgazmalikligi juda boy didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqadi; katta informatsiyani ixchamlantirilishi, fan va texnika tarixiga sayoxat qilish, jarayonni tezlatish yoki sekinlashtirish, niyoyat, uni to'xtatish, lirivintikscha yoki modellashtirish, zavoddagi moslama va appratlarining ichki tuzilishini kuzatish. Yangi texnologiyani

boshqarish bilan tanishtiradi, fan arbobi yoki ilmiy-tekshirish laboratoriysi kirish, turli xil vazifalarni o‘z oldimizga qo‘yish, ularni qaytarish, qiyoslash o‘quv filmlari yordamida amalga oshar edi.

Ko‘rsatilgan harakat turlari bo‘yicha o‘quv-ko‘rgazmali qo‘llanmalar va o‘qitishning texnik vositalari quyidagicha tavsiflanadi:

O‘quv-ko‘rgazmali informatsion qo‘llanmalar (MO‘KQ) va o‘qitishning texnik vositalari (O‘TV) tahminiy harakatlarni (TH) bajarishga yordam beradi: ma’lumotlarga ishlov berishni tezlashtiradi, murakkab holatlarni idrok etish samaradorligini oshiradi, ijrochi va nazorat harakatlarining mo‘ljalini muvofiqlashtiradi.

Mashqlar uchun texnik vositalar va o‘quv-ko‘rgazmali qo‘llanmalar (Mash. O‘KH va MashTV) ijro harakatini (IH) samarali o‘tkazishga yordam beradi: ma’lumotlarni qayta ishlashtirishga, bilim, malaka va ularni mustahkamlash uchun mashq qilishga, ta’limni individuallashtirishga, o‘qituvchilarni qisqartirishga va uskunalar harakatini kamaytirishga imkon beradi.

Nazorat qiluvchi o‘quv-ko‘rgazmali qo‘llanma (NO‘KH) va nazoratning texnik vositalari (NTV) nazorat natijalarini tekshirishni tezlashtiradi, bunda tekshirishni qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish, tekshirishning obyektivligini ta’minalash va o‘quvchilar ishining doimiyligini tekshirish imkonи tug‘iladi.


#### Nazorat savollari:

1. Ta’lim vositalari deb nimaga aytildi ?
2. Ta’lim vositalarining necha turi mavjud va ularga izox bering ?
3. Ko‘rgazmali materiallar, jihoxlarning asosiy turlarini sanab bering
4. Maxsus oq taxta (doska), magnit doskalarga ta’rif bering ?
5. Flipchartalar nima ?
6. Yassi ekrani proyektor, video tasvir materiallarini ayтиb bering

### 3.2. Masofaviy ta’lim texnologiyasi

Masofaviy ta’lim tizimi an‘anaviy ta’lim tizimini amalga oshirishda muammolarga duch kelingan yoki shart – sharoit ushbu jarayonni taqozo qilganda qo‘llaniladi. Bu jarayon ma’lum muhitda ta’lim samaradorligini oshirishga zamonaviy texnoloniyalardan yetarlicha foydalanishga zamin yaratadi.

“Masofaviy ta’lim” tushunchasi fanga 90 – yillardan kirib kelgan. “Masofaviy ta’lim” tushunchasi rus va ingliz tillarida turlicha talqin qilinmoqda. Ingliz tilida “Masofaviy ta’lim» (distant education) “Masofada o‘qitish” (distant learning) kabi variantlarda ham qo‘llaniladi. Telekomunikasiyalardan foydalangan holda tashkil etishni esa (tele training) deb yuritiladi.



Pedagogik adabiyotlarda “Masofaviy ta’lim” tushunchasi o‘quv axborotlarini ta’lim oluvchi masofada turib, yetkazib berishni ta’minlovchi (sun’iy yo‘ldosh, televideniya, kompyuter tarmoqlari va boshqalar orqali) yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan maxsus ta’lim xizmatlari to‘plami sifatida e’tirof etilgan.

Tadqiqotchi D. Sayfurov masofaviy ta’limga quyidagicha ta’rif bergan va o‘qitishning kunduzgi turiga nisbatan afzalliklarini tahlil qilib o’tgan:

Masofaviy ta’lim – bu telekommunikatsiya vositalari yordamida o‘qitish bo‘lib, bunda ta’lim jarayonini bir – biridan uzoqdá joylashgan ta’lim subyektlari (o‘quvchilar, talabalar, pedagoglar) amalga oshiradilar.

#### Masofaviy ta’lim afzalliklari:

- tezkorlik – fazo va vaqt bo‘yicha to‘sqliarning yo‘qligi, yangi dolzarb axborotlarni olish, tez teskari bog‘lanish;
- axborot ta’limiy motivlarining ortishi (tarmoqdagi axborotlar);
- kommunikasió – ta’limning potensial ishtiropchilari sonining ortishi;

- pedagogik – ta’limning yanada ko‘proq motivatsiyalashish, interaktiv (ta’lim ishtiropchilari o‘zaro ta’sirining individualashishi, faollanishi, teskari bog‘lanishning mavjudligi) bo‘lishi;

- psixologik - talabalarning o‘z - o‘zini namoyon etishi uchun yaxshiroq; yaxshiroq;

- psixologik sharoitlar yaratilishi, to‘siqlarning bartaraf etilishi;

- iqtisodiy – ta’lim uchun sarf - harajatlarning kamayishi;

- ergonomik - mashulotlar vaqtining o‘zlashtirish sur’ati va maqbul grafik bo‘yicha taqsimlanish.

Masofaviy ta’lim jarayonini tashkil etish turli xususiyatlarga asoslangan holda olib boriladi.

1. Ta’lim jarayonini boshqarish xususiyati asosida:

Bunda mustaqil – individual ta’lim oluvchi uchun o‘qituvchi - rahbar tomonidan muntazam maslahat berib turiladi. O‘rganilayotgan bilim darajasini nazorat qilish uchun testlar, so‘rovnomalar asosida baholab boriladi.

Mustaqil – individual ta’lim jarayonida talaba o‘qitishning qulay shakllaridan va turli vositalardan foydalaniladi.

2. Ta’lim jarayoni maqsadga ko‘ra: Ushbu turda ta’lim samaradorligiga erishishga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonlari tashkil qilinadi. Bunda kerakli natijaga erishishda lozim bo‘ladigan barcha jarayonlar mustaqil ta’lim olishga qaratiladi.

Masofaviy ta’lim jarayonida egallanishi lozim bo‘lgan barcha ma’lumotlar aniq ifodalanishiga erishish lozim.

3. Masofaviy ta’limning o‘qitish mazmuni asosida:

Masofaviy ta’limni tashkil etishda foydalaniladigan ta’lim resurslarini tanlash, ularni tahlil qilish kabilalar asosida tuziladi. Mustaqil ta’lim olishda masofaviy o‘qitishning turli xil darajalari aniqlab chiqiladi. Har bir ta’lim oluvchining ichki shart – sharoiti va imkoniyati darajasidan kelib chiqqan holda mos keluvchi masofaviy o‘qitish darjasini tavsiya etiladi.

4. Masofaviy ta’limni pedagogik texnologiya asosida:

Masofaviy ta’lim olishda talabalar mustaqil ijodiy, ongli faoliyat bilan shug‘ullanadilar. Ular mustaqil bilim olish jarayonida lozim bo‘ladigan pedagogik texnologiyalardan, usullardan, vositalardan foydalangan holda ta’lim samaradorligiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soladi. Kerak bo‘lgan hollarda qo‘srimcha materiallar ham yordamchi vosita sifatida tatbiq qilinadi.

5. Masofaviy ta’limning tashkil etishda tahliliy yondashuv:

Talabalarga berilgan materiallarni ular qay darajada egallaganliklarini aniqlash, tahlil qilish asosida belgilanadi.

Talabalarning berilgan materialni izchil, tizimli, aniq ketma – ketlik asosida, yetarli shart – sharoitlarni hisobga olgan holda yondashuvni nazarda tutiladi. Bunda berilgan ma’lumotlar elementar tarzda bo‘lib - bo‘lib o‘rganiladi va har bir bo‘lak bo‘yicha nazorat – tekshiruv ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yiladi.

